

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.


Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Tilshunoslik kafedrasida bajarilgan

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy web sahifasiga joylashtirilgan.


**Dissertatsiya manzilining QR-kodi:**




Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar:  f.f.f.d(PhD) N.SH.Qurbonazarova

Kafedra mudiri:  PhD. N. Amonturdiyev

Magistratura bo'limi boshlig'i:  PhD. A.Narbayev





## MUNDARIJA

**KIRISH**.....

### **I BOB. O‘ZBEK TILIDA ETNONIMIK TADQIQOTLAR TAHLILI.....**

1.1. O‘zbek tilida etnonim tushunchasi va uning o‘rganilishi.....

1.2. Qo‘ng‘irot urug‘ining o‘rganilish tarixi.....

1.3. Tilshunoslikda etnonimlashuv.....

I bob bo‘yicha xulosa.....

### **II BOB. ETNONIMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

2.1. Etnonimlarning hosil bo‘lishi.....

2.2. Etnonimlarning grammatik tuzilishi.....

2.3. Etnonimlarning yasalishi.....

II bob bo‘yicha xulosa.....

### **III. ETNONIMLAR ASOSIDA HOSIL BO‘LGAN ETNOTOPONIMLAR**

3.1. Tilshunoslikda etnotoponim tushunchasi.....

3.2. Etnotoponimlar tarkibidagi etnonimlar semantikasi.....

III bob bo‘yicha xulosa.....

**Xulosa**.....

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**.....

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Turkiy tillar etnonimiyasi, jumladan, o‘zbek tilidagi qabila, urug‘ nomlari, ularning shaxobchalarini o‘rganish bo‘yicha fanda ma’lum ishlar amalga oshirilgan. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, etnonimiyatni tadqiq qilish tarixi ikki yo‘nalishda borgan. Bulardan birinchisi etnonimlarni tarix, etnografiya va madaniyat tarixi nuqtai nazaridan o‘rganishdir. Etnonimik materiallarni shunchaki qayd qilib o‘tish usuli o‘tmishda turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqining o‘tmish tarixiga oid juda ko‘p yozma manbalarda mavjud. Ularda voqea va hodisalarni bayon qilish munosabati bilan ba’zi turkiy xalqlar, qabila va urug‘larning nomlari tilga olinadi, ammo etnonimlar haqida maxsus fikr yuritilmaydi. Shunga qaramasdan, bunday bitiklarda etnonimik materialning ifodalangani va bizgacha yetib kelgani g‘oyatda muhimdir.

Qabila, urug‘, va elat nomlari qayd qilingan muhim manbalardan biri – bu antroponomik tizimdir. Ma’lumki, o‘tmishda kishi ismiga, uning mansabiga, unvoni, sulolasi, tabaqasi, kasb-kori, laqabini, shuningdek, ism egasining qaysi urug‘, qabilaga mansubligidan darak berib turuvchi etnonimni qo‘shgan holda atash keng tarqalgan. Mana shu hol ko‘pgina qabila, urug‘ va ularning shaxobchalari nomining sim tarkibida, ism bilan birga saqlanib qolishiga va bizgacha yetib kelishiga sababchi bo‘lgan.

Biz o‘rganib, tadqiq etmoqchi bo‘lgan etnonimlar etimologiyasiga bag‘ishlangan mazkur ishda kichik kamchiliklar bo‘lishi mumkin. Ammo, ilgari surilgan fikrlar va tadqiq etilgan materiallar ilmiylikka asoslangan, hamda yaxshi yoritilgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘aviy tarkibidajuda qadimiy davrlarga xos bo‘lgan bir qator leksik qatlamlar saqlanib kelmoqda. Mana shulardan biri etnonimlardir.

Etnonimlar muayyan hududda yashagan yoki hozirda ham yashab kelayotgan qabila, urug‘, xalq, millat va ularning turli shaxobchalarining maxsus nomlaridir.

O'zbek xalqining millat bo'lib uyushuvida ko'pgina etnik guruhlarining ishtirok etgani ma'lum. O'zbek millati o'z etnik tarkibining serqirra va murakkabligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi. Bu hol o'zbek tilining ko'p shevali til bo'lishiga ham asos bo'lgan. Bu shevalar O'zbekiston hududida va undan tashqarida yashovchi turli etnoslarning mahalliy tillaridir. Etnonimlarni tadqiq qilish mana shu lahja va shevalarning tarkibi va lisoniy xususiyatlari haqida yanada batafsilroq ma'lumot olishga ko'maklashadi.

Etnonimlar o'zbek tili leksikasining vaqt o'tishi bilan unutilishga yuz tutayotgan qatlamlaridan biridir. Chunki qabila, urug' nomi, shajaralarni biladigan keksa avlod vakillari hayotdan o'tib bormoqda va ular bilan xalqimiz tarixining qimmatli guvohi bo'lgan etnonimlar ham, ular haqidagi ma'lumotlar ham unutilishga yuz tutmoqda. Shu sababli etnonimlarni fan uchun to'plab qolish va ularni ilmiy-lisoniy tadqiq qilish muhim vazifalardan biridir. Mana shularni hisobga olgan holda biz etnonimlarni to'plash va ularning lisoniy xususiyatlarini ilmiy tadqiq qilishni maqsad qilib oldik. Yuqorida aytilganlarning barchasi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Turkiy, jumladan, o'zbek etnonimlari haqidagi qimmatli ma'lumotlar qadimiy turkiy tilga oid yozma bitiklarda, M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'oziy Bahodirxonning asarlarida, shuningdek, o'rta asrlarga mansub arab va fors tilida yozilgan bir qator tarixiy bitiklarda saqlanib, bizgacha yetib kelgan.

XX asrda turkiy, jumladan, o'zbek etnonimlarining tarixi va etnografik xususiyatlari taniqli tarixchi va sharqshunoslardan V.Bartold, L.S.Tolstova, Y.G'ulomov, D.X.Karmisheva, B.Ahmedov, A.Muhammadjonov, K.Shoniyozov va boshqalar tomonidan yoritilgan.

O'zbek etnonimlari tilshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq qilingan bo'lib, u masalaga oid ba'zi ilk kuzatishlar X.Doniyorov, A.Ishayev, A.Otajonovanning ishlarida uchraydi. Ushbu olimlarning ishlarida ham etnonimlar, asosan, etnografik va tasniflash nuqtai nazaridan tadqiq qilingan. Marqayev Komil

Sherqulovich tomonidan o‘zbek etnonimlarining lisoniy tadqiqi janubiy O‘zbekiston hududi materiallari asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Tadqiqotning asosiy maqsadi mamlakatimiz hududida uchraydigan qabila, urug‘ va ularning shahobchalari nomlarining lisoniy xususiyatlarini lingvistik va nolingvistik usullarga tayangan holda tadqiq qilishdir.

**Tadqiqotning vazifalari.** Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun ish oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- o‘rganilayotgan hududda uchraydigan o‘zbek etnonimlarining materialini to‘plash;
- etnonimlarning paydo bo‘lishi tarixini o‘rganish;
- qabila va urug‘larni nomlashda asos bo‘lgan lisoniy va etnografik materiallarni belgilash;
- etnonimlarni mavzuviy-etimologik manbalarni o‘rganish;
- etnonimlar etimologiyasiga oid kuzatishlar olib borish;
- etnonimlarning grammatik tuzilishi va yasaliş xususiyatlarini tadqiq qilish;

**Tadqiqotning obekti va predmeti.** Tadqiqotning tekshirish obektini o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar nutqida uchraydigan etnonimlar hisoblanadi. Bu etnonimlar imkon qadar to‘plandi va tahlil qilindi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O‘zbekistonning janubiy hududlarida qo‘llangan va qo‘llanilayotgan etnonimlarning lisoniy va nolisoniy xususiyatlari tadqiq qilindi. Ushbu ishda o‘rganilayotgan hudud etnonimiyasi tizimining tarixi, nomlanishi, nomlarning grammatik tuzilishi va yasaliş, etnonimlarning yuzaga kelishiga asos bo‘luvchi lisoniy va nolisoniy omillar atroflicha tahlil qilindi.

**Tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Ushbu ishning ilmiy-nazariy xulosalari o‘zbek tili tarixi, dialektologiyasi, o‘zbek nomshunoslig sohalari uchun ilmiy qimmatga ega bo‘lib, ulardan “O‘zbek tili tarixi”, “O‘zbek

leksikologiyasi”, “O‘zbek dialektologiyasi” kabi sohalardan mahsus kurslar o‘tishda, mustaqil ishlar tayyorlash uchun ishlatish mumkin.

**Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi.** Mazkur ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, .... sahifani tashkil qiladi.

## **I BOB. O‘ZBEK TILIDA ETNONIMIK TADQIQOTLAR TAHLILI**

### **1.1. O‘zbek tilida etnonim tushunchasi va uning o‘rganilishi**

XX asrning 60-70-yillarida o‘zbek onomastikasi sohasi vujudga kelgan hisoblanadi. Shu davrdan boshlab onomastika tilshunosligimizning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi.

O‘zbek nomshunosligi bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug‘atlar, ko‘p sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi.

Ma’lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko‘ra quyidagi guruh (bo‘lim)larga ajratadi: *antroponimiya* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* – geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo‘yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, *astronimiya* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o‘zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo‘lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo‘limi realionimlar (avval va hozir mavjud bo‘lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo‘lgan mifonimlar xayoliy – to‘qima obyektlarning nomlarini bildiradi. Shulardan biri bo‘lgan nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli

atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaning asosiy vazifasidir.

Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o'rganadi. O'zbek nomshunosligida mavjud bo'lgan ishlarning aksariyatida ismlar, qisman laqab va taxalluslar, mikrotoponim va makrotoponimlar, etnonimlar tahlil qilingan, xolos. Lekin o'zbek tilidagi atoqli otlarning ba'zi tiplari shu kunga qadar deyarli o'rganilgan emas yoki kam tahlil qilingan. Bunday masalalar qatoriga *kosmonimlar (astronimlar), mifonimlar, ktematonimlar, agnonimlar, nekronimlar, geonimlar, gemeronimlar, dokumentonimlar, oronimlar, patronimlar, pereytonimlar, xromonimlar, geortonimlar, speleonimlar, fitonimlar, ekklezionimlar, ergonimlar, xrematonimlar, badiiy onomastika, onomastik uslubiyat, laqab va taxalluslar, atoqli otlarning imlosi, onomastik birliklarning amaliy transkripsiyasi va transliteratsiyasi, nomshunoslikning amaliy va nazariy muammolari, jumladan onomastik leksikografiya* muammolari kiradi.

*Etnonim* so'zi yunoncha bo'lib, *ethnos* – xalq ma'nosida qo'llaniladi. Har qanday etnos (urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqalar) ning nomi, bir tilda mavjud etnonimlar majmui, yig'indisi *etnonimiya*, nomshunoslikning, shuningdek, tarix, etnografiya fanlarining etnonimlarni tadqiq qiluvchi sohasi esa *etnonimika* deb yuritiladi.

Har bir etnonimning o'z ma'nosi bor. Ba'zi etnonimlar juda qadimiy nomlar bo'lganidan ma'nosini tushunish qiyin. Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo'lib, ma'lumot tashishga xizmat qiladi, shu sababli etnonimlarni o'rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega.



Ma'lumki, har bir etnonimning kelib chiqishi tarixi bor. Ularni bilmasdan turib toponimlar haqida xulosa chiqarish ancha qiyin, chunki urug', qabila nomlari ham muayyan ma'noni anglatadi. Ko'pgina etnonimlarning kelib chiqishi, etimologiyasi hozirgacha ham ma'lum emas. Masalan "O'zbek" so'zining kelib chiqishi to'g'risida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik olimlar ko'chmanchi o'zbeklar Oltin o'rda xoni O'zbekxon (XIII asr) ismi bilan atalgan deyishadi. Xolbuki, O'zbekxon Oltin o'rdada xonlikka ko'tarilgan, o'zbek atamasi esa Oq o'rdada paydo bo'lgan.

XIV-XV asrlarda Eron va O'rta Osiyo tarixchilari Oq o'rdaning barcha turkmo'g'ul qabilalarini o'zbeklar deb atashgan. Bundan tashqari O'zbek ismi O'zbekxondan oldin bitilgan asarlarda ham uchraydi. O'zbek etnonimi O'zbekxon ismidan kelib chiqqan degan fikr noto'g'ri. Bu etnonim "O'zi bek" degan ma'noni bildiradi deyish ham ilmiy dalil emas. O'zbek o'z(uz)qabilasi nomi bilan bog'liq degan fikr ham isbottalabdir. Umuman, o'zbek so'zining etimologiyasi hozirgacha aniq emas.

Boshqa ko'pgina turkiy xalqlar kabi o'zbek xalqi ham qabila-urug'lardan tashkil topgan. Akademik V.V. Bartold fikriga ko'ra dastlab 32 o'zbek urug'i bo'lgan. Lekin XVI asrda Farg'onalik Mulla Sayfiddin Axsikandiy "Majmuat-tavorix" asarida 92 o'zbek urug'ini tilga olgan. N. Xannikov o'zining "Buxoro xonligi tasviri" (1843) kitobida "Nasabnomai o'zbekiya" ga asoslanib, 97 o'zbek urug'ining ro'yxatini keltirgan.

Ma'lumki, insoniyat biologik jihatdan bir butun bo'lsa ham, umumiy sotsiologik qonunlar asosida taraqqiy etib, son-sanoqsiz guruhlariga, to'plarga bo'linadi. Kishilar *qabila*, *urug'*, *elat*, *xalq*, *millat* kabi uyushmalarga birlashib jamiyatda yashaydi hamda ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug'ullanadi. Shular orasida *qabila* alohida o'rin tutadi. *Qabila* sinfsiz jamiyatdagi etnik birlik bo'lib, ijtimoiy tashkiliy guruh, jamoadir. *Elat* esa kishilarning til jihatdan, hududiy, iqtisodiy va madaniy birligi bo'lib, millatdan oldingi bosqichdir. *Millat* esa kishilarning barqaror tarixiy birligi, umumiy iqtisodiy turmush hamda til, hudud

birligi, madaniyat, ong va psixologiyaning o'ziga xosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklidir.

Eng qadimdan XX asrgacha o'zbeklar tarkibiga kirgan *barlos, nayman, saroy, qo'ng'iroq* kabi urug' va qabilalar, o'z navbatida, *to'p, tira, shox, avlod, qavm* singari tarmoqlarga bo'linadi. Ana shu har bir etnik bo'linishning o'z nomi bor. *To'p, to'par, shox, tira, jamoa, toifa, avlod, qavm, urug', qabila, elat, xalq, millat* nomlari *etnonimlar* deb yuritiladi.

Etnonimlarni o'rganish bilan tilshunoslik, tarix, etnografiya, geografiya kabi bir qator fanlar shug'ullanadi hamda ularni chuqurroq tadqiq etish xalq va millatning kelib chiqishi, etnogenezini aniqlashga yordam beradi. Urug', qabila nomlari – etnonimlar asta-sekinlik bilan o'sha jamoa yashaydigan hudud nomiga aylanib qoladi. Bunga *etnotoponim* deyiladi. Ba'zan etnonimlar asosida qaysi hududda qanday urug' yoki qabila vakillari yashaganligini bilish mumkin. Masalan, O'zbekiston hududining bir qancha joylarida *Jaloyir* degan qishloqlar bor. Aslida jaloyir urug'i vakillari Ohangaron havzasi hamda Xo'jand atroflarida XI-XIII asrlarda yashaganlar. 1375 yilda jaloyir qabilasi vakillari Amir Temurga qattiq qarshilik ko'rsatgani uchun uning farmoni bilan jaloyirliklar sarkardasi qatl etiladi hamda bu qabila vakillari turli hududlarga ko'chirib yuboriladi. Ana shundan keyin faqat jaloyirlar emas, balki ularning qo'l ostidagi etnik guruhlar ham xuddi shunday nom bilan atalgan. O'zbek etnonimlarini tadqiq etish bo'yicha I.I.Umnyakov, K.Shoniyozov, B.Ahmedov, A.Asqarov kabi tarixchi olimlar, X.Doniyorov, S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov, N.Oxunov, A.Turobov, K.Marqayev, N.Begaliyev kabi tilshunos olimlar ko'pgina ishlarni amalga oshirganlar. Masalan, K.Shoniyozovning “К этнической истории узбекского народа” (1974), “O'zbek xalqining shakllanish jarayoni” (2001), B.Ahmedovning “O'zbek ulusi” (2002) kabi asarlari nashr etilgan. Akademik A.Asqarovning “O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” nomli tarix yo'nalishidagi talabalar uchun o'quv qo'llanmasi, X.Doniyorovning “O'zbek xalqining shajara va shevalari” asari ikki qismdan iborat. Dastlab bu asarda o'zbek xalqining qabila va urug' nomlari M.Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, Rashididdinning

“Jome’ut tavorix”, Alisher Navoiy, Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarida qo‘llanishi haqida qiziqarli ma’lumotlar keltiriladi. Asarning keyingi bobida o‘zbek etnonimlari haqida qo‘lyozma manbalarda, tilshunoslikka oid tadqiqotlarda bildirilgan fikrlar tahlil qilinadi<sup>1</sup>.

S.Qorayevning “Etnonimika” risolasida etnonim va etnotoponimlarning shakllanishi hamda ularning ma’nosi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, M.Mamedovning “Xalq nomlari joy nomlarida” (1981), U.Sanaqulovning “O‘zbek xalqining hamda tilining tarkib topishi va nomlanishi” (1991), G‘.Abdurahmonovning “O‘zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida” (1999), Z.Ziyotovning “Turon qavmlari” (2008), A.Turobovning “Samarqand etnonim va etnooykonimlari” (2004), A.Shukurovning “O‘zbek” atamasining kelib chiqishi haqida” (2010) singari asarlari ham o‘zbek etnonimikasi muammolari tahliliga bag‘ishlangan. N.Begaliyevning “O‘zbek etnonimlari tarixidan” nomli asarida 92 bovli o‘zbek urug‘lari ro‘yxati, qo‘ng‘irot qabilasi va uning urug‘lari shajarasi berilgan hamda bir qancha turkiy urug‘ va qabila nomlarining etimologiyasiga doir qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan.

K.Marqayev Janubiy O‘zbekiston hududi materiallari asosida o‘zbek tili etnonimlarining lisoniy tadqiqini amalga oshirdi. Bu nomzodlik ishining birinchi bobi “Etnonimlarning onomastik tizimdagi o‘rni” deb nomlangan. Keyingi bobda etnonimlarning ma’noviy-mavzuiy tasnifi yoritilgan. Eng muhimi, bu qismda hozir iste’moldan chiqqan, tushunarsiz ayrim etnonimlarning etimologik tahlili berilgan. Xullas, etnonimlar tilimizning lug‘aviy boyligi, etnoslarning o‘ziga xos nomi sifatida o‘rganiladi. Etnonimlar onomastik tadqiqotlarda onomastik birliklar ko‘lamiga kiruvchi atoqli ot tiplaridan biri sifatida tahlil qilinadi.

O‘zbek tili etnonimlarga boy. Birgina qo‘ng‘irot qabilasida 200 ta urug‘ nomlari aniqlangan. X.Doniyorov tomonidan o‘zbeklarning 300 dan ortiq urug‘ nomlari to‘plangan. Etnonimlarning antroponimik tizimga o‘tishi o‘zining o‘tmish qadriyatlariga ega, buni XI-XIX asrlar O‘rta Osiyo yodgorliklarida ham ko‘rish mumkin. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” (XI asr) asarida 86 ta

---

<sup>1</sup> Marqayev K. O‘zbek etnonimlari. – Qarshi: Intellekt, 2021. – B.35-36.

kishi ismlari uchraydi, shulardan faqatgina 2 tasi – Turk va Qang‘li etnonimlarga asoslangan. **Turk** qadimgi etnonim, **qang‘li** esa Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan etnonim deb hisoblanilmagan. 75 ta etnonim ichidan ayrimlari, aynan *afshar, eymir, bayot, boshg‘irt, bulg‘or, kochset, tuxsi, tatar, tang‘ut, turk, turkman, uyg‘ur, qarluq, qirg‘iz, qipchoq, ug‘rak-og‘rak, salg‘urlar* hozirgi o‘zbek ismlarida fonomorfoloqik tarkibi o‘zgargan holda saqlanib qolgan: *Ovshar, Amir, Bayot, Boshkir (Boshqirt), Bulg‘or, Kuchat, Dukchi, (Tukchi), Tatar, Tongot, Turk (Turboy), Turkman, Uyg‘ur, Qorluq, Qirg‘izboy, Qipchoqboy, O‘roq, Solor (Salor)*.

O‘zbek tilida etnoantropnimlar transpozitsiya (*qirg‘iz-Qirg‘iz, turkmanTurkman*), affiksatsiya (*bashir-Bashira*), kompozitsiya (*Qang‘liboy, Mang‘itqiz, Turkmirza, Tog‘aymurod*) yo‘llari bilan yasaladi. Antropnimlarning keying yasalish uslubi keng tarqalgan. Etnonimga barcha so‘zlar emas, balki *boy, xon, jon, qul, bek, biy, xo‘ja, berdi, murod, nazar, qiz, mirza, bola, nor, qo‘zi, oq, qora, bibi, buvi, oy, oyim, niso* kabi o‘ziga xos so‘zlar qo‘shiladi. Bunday etnolingvistik aspektidagi ismlar antropnimikada o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Bunday ko‘rinish tarixda erkaklarga nisbatan qo‘llanilgan, ayollarga nisbatan esa kam ishlatilgan<sup>2</sup>.

*Ulus* (mo‘g‘ulcha-eski o‘zbekcha) – xalq, el-yurt ko‘chib yuruvchi xalq va istiqomat qilgan hudud; biror katta qabila; o‘rta asrlarda shahzodalar va sultonlar ixtiyoriga ajratib berilgan ma‘lum hudud. Tor ma‘noda ma‘lum bir urug‘, qabila yashab turgan sarhadni ifodalagan. Kengroq ma‘noda esa xon va uning oila a‘zolariga tegishli yerlar va ularga bo‘ysunuvchi hamda shu yerda istiqomat qiladigan aholini qamrab olgan ma‘lum sarhad tushunilgan. Tarixiy manbalarda Jo‘chi ulusi, No‘g‘ay ulusi, Shaybon ulusi, O‘zbek ulusi kabi uluslar mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar ko‘plab uchraydi.

*Umoq* – *urug‘, qabila* – bir ajdoddan tarqalib, umumiy bir nom bilan ataluvchi qon-qarindoshlik jamoasi. Qarindoshlik hisobi ona (ona urug‘i) yoki ota (ota urug‘i) bo‘yicha olib borilgan. Urug‘ yuqori va quyi paleolit davrlari

---

<sup>2</sup> Nafasov T. Azərbaycan onomastikasi problemlari. Материалы II научно-теоретической конференции, посвященной проблемам азербайджанской ономастики. – Баку, 1988. – С. 71-73.

oralig'ida paydo bo'lgan. Urug'lar qabilalarga birlashgan. Jamiyatda tabaqalanishning paydo bo'lishi bilan bo'linib ketgan. Urug'-qabilalarga bo'linish qoldiqlari ko'p xalqlarda saqlanib qolgan.

*Urug'* – qarindosh, avlod bir ota-onadan tarqalgan avlod; kishilik jamiyatining ibtidoiy pada davridan keyingi bosqichi. Ushbu kishilarning eng qadimgi birligi bo'lib, qarindosh, avlod, bir necha ota-onadan tarqalgan avlod, kishilik jamiyatining ibtidoiy gala davridan keyingi bosqichi quyi paleolitdan yuqori paleolitga o'tish davriga to'g'ri keladi. Urug'chilik qon-qarindoshchilikka asoslangan bo'lib, har bir urug' odamlari bir-birlari bilan xo'jalik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'ladi. Bir ota-bobodan, bir ajdoddan kelib chiqqan kishilar – avlod, qarindosh, ajdod, bir ota-bobodan tarqalgan kishilar – urug', ajdod. Kishilik jamiyatining ibtidoiy gala davridan keyingi bosqichidagi ona urug'i – ona tomonidan qon-qarindoshchilik rishtalari bilan bog'langan qondosh qarindosh-urug'lar ittifoqi, ota urug'i– ota tomonidan qon-qarindoshchilik rishtalari bilan bog'langan qon-qarindosh-urug'lar ittifoqi<sup>3</sup>.

## **1.2. Qo'ng'irot urug'ining o'rganilish tarixi**

Qo'ng'irot urug'ining etnogenezini o'rganishda tarixiy manbalarning o'rni beqiyosdir. Chunki aynan manbalar orqali biz qo'ng'irotlarning kelib chiqishi va ularning O'rta Osiyo xududiga ko'chib o'rnashish tarixini o'rganish imkoniyatiga eta bulamiz. Kung'irotlar haqida ma'lumot beruvchi manbalar ko'p bulib, ular orasida “Mo'g'ullarning yashirin tarixi” muhim o'rin tutadi. Muhimlik tomoni shundaki, u qo'ng'irotlar haqida ma'lumot beruvchi manbalarning eng qadimiysi hisoblanadi. Bundan tashqari asar boshqa o'zbek qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib, tarixdagi qator chigalliklarni yechishga xizmat qiladi. “Mo'g'ullarning yashirin tarixi” 1240 yilda mo'g'ullarning ulug' hoqoni Ugadoy buyrug'i bilan yozilib, keyincha Xitoyga olib ketilgan. Rossiyaga bu asar Xitoyga diniy missiya boshlig'i sifatida borgan Palladiy Kafarov tomonidan ma'lum qilindi. Bu yangilik Rossiya ilmiy jamoatchiligida mo'g'ullar tarixiga oid bo'lgan noyob manbaga nisbatan qiziqish uyg'otdi. Tadqiqotchilar

---

<sup>3</sup> Bo'riyev O., Rahmonov F. Etnologiya atamalarining qomusiy lug'ati. – T., 2021. – B. 250-252.

tomonidan bu asargabag'ishlab qator maqolalar, kitoblar chikarila boshlandi. Ayniqsa, akademik S.A.Kozinning olib borgan ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Xususan, 1941 yilda S.A.Kozin tomonidan bu asarning mo'g'ulcha matni bilan birga ruscha tarjimasi ham berilib, oldingi nashrlardagi kupginaxatoliklarga tuzatishlar kiritildi.

Bundan tashqari, nemis mo'g'ulshunosi Xeynish, fransuz Paul Pellio, avstraliyalik Rashevelitslar mo'g'ullarning tarixiga doir bu nodir manbani o'rganib, qator asarlarni chop ettirdilar.

Qo'ng'irotlar tarixi haqida ma'lumot beruvchi yana bir tarixiy manba XIV asrda yashagan mashhur sharq tarixchisi Rashididdin Fazlulloh Qazvinii (Hamadoniy)ning "*Jome' at-tavorix*" asaridir. Taniqli o'zbek olimi X.Doniyorovning ta'kidlashicha, Rashididdinning ushbu asari shu vaqtgacha g'arb va sharq olimlari tomonidan mo'g'ullar deb atab kelinayotgan o'zbek (turkiy) qabila va urug'larining aslida kim ekanligini aniqlash uchun bevosita kalit bo'lib xizmat qiladi. Masalan, o'zbek xalqi tarkibidagi *barlos, jaloyir, mo'g'ul, kenagas, qiyon, nirun, sulduz, qiyot, qo'ng'irot, boyovut* kabi ayrim qabila va urug'lar tarixi shu qadar chigallashib ketgan ediki, agar Rashididdinning shu kitobi saqlanib qolmaganda edi, ularning tarixini, qaysi xalqdan chiqqanligini yechib berish amrimahol bo'lar edi, chunki bu urug'larning ayrim vakillaridan tortib, g'arb va sharq olimlarigacha ularni mo'g'ullardan kelib chiqqan deb hisoblar edilar.

Qo'ng'irotlarning XV-XVIII asrlardagi tarixini o'rganishda Muxammad Solihning "*Shayboniynoma*", Muxammad Yusuf Munshiyning "*Tarixi Muqimxoniy*", Hofiz Tanish Buxoriyning "*Abdullanoma*", *Sharafnomayi shohiy*", Muhammadyor ibn Arab Muxammad qatag'onning "*Musaxxir al-bilod*" ("Mamlakatlarning fath etilishi"), Mahmud ibn Valining "*Bahr ul- asror*", Masud ibn Usmon Kuhistoniyning "*Tarixi Abulxayrxoniy*", Abulg'oziyning "*Shajarai turk*", Mirzo Abdulazim Somiyning "*Tarixi salotini mangitiyya*", Abdurahmon Tolening "*Tarixi Abulfayzxon*", kabi asarlari muhim ahamiyatga ega.

XIX asrda qo'ng'irotlar to'g'risidagi ma'lumotlar asosan rus va boshqa yevropa olimlarining bir qator asarlarida keltiriladi. XX asrga kelganda qo'ng'irotlar

urug‘i xag‘ida talaygina ilmiy ishlar qilindi. Qo‘ngirotlarning shajara jadvali ishlab chiqildi. Chunonchi, N.F.Sitnyakovskiy, I.P.Magidovich, K.P.Vasilev, X.Doniyorov, K.J.Zadixina, B.X.Karmisheva va boshqalar o‘z asarlarida qo‘ng‘irotlarning urug‘larga bo‘linishi haqida qimmatli ma‘lumotlar keltiradilar.

Mustaqillik yillarida xam ushbu mavzu ko‘plab tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb etdi. Xususan, qo‘ng‘irotlar xususida professor N.Norboyev, K.Berdiqulov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar.

Qo‘ng‘irotlar turk-mo‘g‘ul qabilalari orasida Chingizxonga eng yaqin qavm bo‘lib hisoblangan. Chunki qo‘ng‘irotlar unga hokimiyatini mustahkamlab olishiga katta yordam berishgan.

Barcha xotinlari orasida Chingizxon qo‘ng‘irot qabilasi sardori Day no‘yonning qizi Burte-Fujinni nihoyatda hurmat qilgan. Keyingi xonlar xam aynan qung‘irotlar va qiyotlardan o‘zlariga xotin olishgan. Qiyotlar esa Chingizxonning ota urug‘idandir. Abulg‘oziyning yozishicha, “Tog‘dan kelgan selni mo‘g‘ul qayon der. Qiyon aning jam‘i turur. Qiyotning asl ma‘nosi kuchli va yildam temak bo‘lur. Tog‘dan oqqan sel yildam va kuchli turur. Aning uchun ul otni qo‘yub tururlar. ...Qobilxon (Chingizxonning uchinchi pushtdagi bobosi-I.U.)ning olti o‘g‘li bo‘ldi. Oltisi xam bahodir va pahlavon va yildam erdilar. Aning uchun ularga qiyotlar tedilar. Qiyot eli ularning nasli turur. Qobilxon o‘ldi. O‘g‘li Bartanni xon ko‘tardilar. Aning to‘rt o‘g‘li bor erdi. Avvalgining oti Munguday. Ikkinchisi Bukan taysi. Uchinchisi Yesugay baxodir. To‘rtinchisi Daritay. Bulardan bulg‘on o‘g‘lonlarni xam qiyotlar tedilar<sup>1</sup>”.

Qo‘ng‘irotlarning qiyotlarga, ya‘ni chingiziylarga yaqin bo‘lganligi ularning mavqei yuqori bo‘lishiga olib keldi. Chingizxonning yurishlari davrida Dashti Qipchoq va Movarounnaxrdagi ko‘pgina katta-kichik yoki kuchsizroq qabilalar asl mo‘g‘ullardan hisoblangan qung‘irotlar tarkibiga kirgan va o‘zlarini shu nom bilan atashgan. Buning sababini Rashididdin quyidagicha izohlaydi: “Har xil urug‘lar o‘zlarining ulug‘ligi va qadrini o‘zlarini mo‘g‘ullarga qo‘shish bilan belgilay boshladilar. Chunki Chingiz va uning urug‘lari mo‘g‘ul deb atalar edi. Ana

shuning uchun ham *jaloyir, tatar, oyrat, ungut, kerayit, nayman, tangut* kabi har xil qabilalar endilikda o‘zlarini mo‘g‘ulga q‘shib hisoblaydi”.

Agar qo‘ng‘irot urug‘lari jadvaliga nazar tashlansa, u holda kelib chiqishi qo‘ng‘irotlarga aloqasi bo‘lmagan *oyinni, taroqli, qoraqalpoq, saroy, munka, tugiz, tulkichi, merkit* singari yirik qabilalarning qo‘ng‘irotlar tarkibiga kirganligining guvohi bo‘lamiz. Bu qabilalar bir vaqtlar katta nufuzga ega bo‘lgan, keyinroq turli sabablarga ko‘ra har yerga tarqalib, boshqa turkiy qabilalar tarkibiga kirib qolganlar. Bir vaqtning o‘zida bir nomdagi urug‘ning qator qabilalar tarkibida bulishi fikrimizning dalilidir. Masalan, Sharqiy Buxoro va Xorazm va Qo‘ng‘irotlari bilan qoraqalpoq urug‘lari o‘zaro taqqoslanganda har uchallasida *ochamayli, bolg‘ali, bug‘ajeli, qonjig‘ali, qoraqursoq, qushtamg‘ali, tortuvli, to‘g‘iz (qoraqalpoqlarda to‘g‘uzga qaragan urug‘i), baroq, borbay, jilontamg‘ali, qorabuvra, no‘g‘ay urug‘larining; Sharqiy Buxoro qo‘ng‘irotlari bilan qoraqalpoqlarda oyinni, oqpichoq, baymoqli, qazayoqli, qozoq, qaychili, qanchi, qorabo‘yin, qarg‘a, qo‘ldovli, qopish, quyun, qurama, taroqli, urus, xandaqli, chojayli, chollik, chumichli, irg‘oqli, turkman urug‘larining; qo‘ng‘irotlar bilan juzlarda qazoyoqli, qozoq, kesovli, bolg‘ali (bular turkman juzlarning vaxtamg‘ali urug‘i tarkibiga kiradi), ko‘sa, qarg‘a, taroqli (bular turkman juzlarining jilontamg‘ali guruhiga kiradi) urug‘larining; qo‘ng‘irotlar va kenagaslarda-taroqli, o‘r, bolg‘ali, ochamayli, aboxli, qoraqalpoq, nayman taroxli urug‘larining; qang‘lilar bilan qo‘ng‘irotlarda qopa, bolg‘ali, taroqli, irg‘oqli, ochamayli (oshamayli), cho‘michli (shomishli) urug‘larining; saroy qabilasi bilan qo‘ng‘irotlarda tug‘iz, qo‘shamg‘ali, qonjig‘ali, qozoyoqli, avoxli (aboqli), baymoq kabi urug‘larning uchrashi ma‘lum bo‘ladi.*

Qashqadaryoning yuqori qismini o‘rgangan K.Kubakov saroy qabilasi tarkibida tug‘iz saroy, qo‘shamg‘ali saroy, qo‘ng‘irot saroy urug‘larining borligini qayd etadi. Qo‘ng‘irot saroy urug‘i *daroz, nayman, tanaka, temir, balxi, tog‘aberdi, devonboy, gavora, jonaberdi, majmax, loqa, ochamayli, ko‘sa, qoracha, to‘rto‘g‘il, xontushdi, gallakol* urug‘lariga bo‘linadi. Qo‘shamg‘ali saroy



esa nayman, qozoq, so‘fi, jo‘vitan, avaqli, qirov, suli, mang‘it, qul urug‘lariga bo‘linadi<sup>1</sup>.

Keltirilgan misollar qo‘ng‘irotlar tarkibiga asrlar davomida turli urug‘ va qabilalarning kelib qo‘shilganligini ko‘rsatadi. Quyida shu qabilalar xususida to‘xtalib o‘tib ular haqida ma‘lumot beramiz.

Aboxli-Bu urug‘ning kelib chiqish tarixi juda uzoq bo‘lib, qadimiylik buyicha xatto xunlardan ham o‘zib ketadi. Ular O‘rta Osiyo hududidan to Tinch okeanigacha bo‘lgan hududlarda, shuningdek Shimoliy Amerikaning g‘arbiy qirg‘oqlarida ham yashashgan. Bunga dalil sifatida hozirgi AQShning g‘arbida yashovchi navax (aboxli urug‘i ba‘zan avaxli deb ham ataladi) qabilasini keltirish mumkin.

Navax va boshqa qabilalarning Shimoliy Amerikaga qachon ko‘chib borishgani aniq emas. Tadqiqotchilarvshng fikriga ko‘ra navaxlar mansub bo‘lgan katta na-dene oilasi Shimoliy-Sharqiy Osiyodan ancha kechroq ko‘chib kelgan qabilalarning avlodlaridir. Amerikalik tilshunos Y.Sepir ularning tilini tibet-xitoy tillari oilasi bilan aloqadorligi haqidagi fikrini ilgari surib, uning bu fikri hozircha tasdiqlangan ham emas, ayni vaqtda inkor etilgan ham emas. Ammo ularning Amerikaning Osiyoga yaqin shimoliy-g‘arbiy hududlarida yashashlari ham tasodifiy emas<sup>2</sup>.

Qayd etish lozimki, Amerika hindulari bilan nafaqat Shimoli-Sharqiy Osiyo qabilalari, balki Avstraliya, Okeaniya va xatto Kavkazda yashagan qabilalarning suzlaridaham qator parallellik mavjud. N.Y.Marr, P.Rivet va boshqalarning tadqiqotlari buni ko‘rsatib bermoqda.

*Avaxli* aslida *avax* eli bulib, “*avaxli*” so‘zi uning qisqartmasidir. Bu urug‘ning saroy, qo‘ng‘irot va kenagaslar tarkibida bo‘lishi ularning qachonlardir yirik qabila bulganligi hamda O‘rta Osiyo va boshqa o‘lkalarga ko‘chib kelib, turli ellarga tarqalib ketganligini ko‘rish mumkin.

*Baymoqli* –qang‘li qo‘ng‘irot va qoraqalpoqlar tarkibidagi urug‘. Ularning shakllanish haqida hozircha hech qanday ma‘lumot yo‘q. Ayrim tadqiqotchilar baymoq so‘zini boyboq ya‘ni kemiruvchi hayvon nomidan olinganligini taxmin

qilishadi-yu, lekin uni hech qanday dalil bilan asoslashmaydi. Aytishimiz joizki, Ko‘hitang xattakilarida ham baymoqli urug‘i mavjud. Lekin ularning qo‘ng‘irot, qang‘li yoki qoraqalpoqlarga hech qanday aloqasi yo‘q. Ular o‘zlarining kelib chiqishini XVIII asrda yashagan Baymoq ismli odamga olib borib taqashadi. Taniqli o‘lkashunos olim Shoniyoz Safarovning Xattak qishlog‘ilik Olloqul Fayzullaevdan yozib olgan ma‘lumotlari ko‘ra, Samarqand hokimi bir kuni qur‘achini chaqirib, “bu yil qanday o‘tadi” deb so‘raganida, qur‘achi unga bu yil bir o‘g‘il tug‘ilishini, u yetti yoshga kirgandan so‘ng podshoni ag‘darib o‘rniga o‘zi o‘tirishini aytadi. Shunda Samarkand podshosi davlatdagi barcha homilador ayollarning ro‘yxatini olish hamda ularni podsholikka keltirish to‘g‘risida farmon beradi. Odamlarni chalg‘itish maqsadida “homilador ayollarga podsholikdan pul beriladi” deb aytiladi. Shu tariqa barcha homilador ayollar saroyga yig‘ib kelinadi. So‘ngra ularning qorniga buroq solinadi. Ayollarning ko‘pchiligi kuchli og‘riqdan o‘lib qolishadi. Ko‘pchiligi bola tashlaydi. Ayrimlarining bolalari o‘lik holda tug‘iladi. Tirik tug‘ilganlari esa umrbod majruh bo‘lib qolishadi. Majruh bo‘lib qolgan bolalarning ayrimlari tovonsiz edi.

Turli ishlar bilan Samarqandga kelgan xattaklik Xulqali boboning katta o‘g‘li ham onasining qorniga buroq solinishi natijasida tovonsiz tug‘iladi. Mudhish voqeadan g‘azablangan, ammo hech narsa qilolmagan odamlar norozi bo‘lib, turli o‘lkalar tomon ko‘chib ketishadi. Ular qatori Xulqali bobo ham ketib, ota yurtiga qaytadi. Katta o‘g‘li tovonsiz tug‘ilganligi uchun unga Baymoq (ya‘ni tovonsiz) deb ism qo‘yishadi. Ana shu boladan tarqalgan avlod baymoqlar deb ataldi<sup>1</sup>.

Tarixning guvohlik berishicha, XVIII asrning 20-30 yillarida, ya‘ni Movarounnaxrda o‘zaro feodal urushlari avjiga chiqqan davrda Samarqand mustaqil davlatga aylangan. Uni Xorazm xonlari avlodidan bo‘lgan Rajab Sulon va Shahrisabz hokimi Ibrozhimbiy kenagaslar boshqargan. Samarqand davlati shu davrda Buxoro xonligi bilan tez-tez urushlar olib borgan. Shundan kelib chiqib buroq solish voqeasi XVIII asr 20-30 yillarida sodir bo‘lgan deyishimiz mumkin. Tovonsiz tug‘ilgan bolalar nafaqat xattakilarda, balki boshqa urug‘larda ham bo‘lgan. Shu bois ulardan tarqalgan avlodlar baymoqlilar deb atalgan.

### 1.3. Tilshunoslikda etnonimlashuv

O‘zbeklar turkiy xalqlar ichida ko‘p urug‘, qabilaga bo‘lingani bilan ajralib turadi. Tilshunos olim S.Qorayevning etnonim – qabila, urug‘, xalq nomi<sup>4</sup> degan fikrini sal mukammallashtirish tarafdorimiz. Etnonimlar bu qabila, urug‘, aymoq, el, elat va xalq(lar) nomi hisoblanadi desak, tadqiqotchilarning nazaridan qolib borayotgan el, elat, aymoq terminlarini ham e‘tiborga olgan bo‘lamiz. Bu terminlarning har biri o‘ziga xos ma‘nolarga ega.

Aymoq so‘zi ilmiy ishlarda ma‘nosi arxaiklashgan terminlardan biri sifatida negadir qo‘llanilmaydi. Mana endi qo‘llanmoqda: “Tilimizda “Urug‘ingdir-aymog‘ingdir yoki birorta maymog‘ingdir”, “Falonchi serurug‘, urug‘-aymoqlari ko‘p” degan iboralar tez-tez uchrab turadi. Bunda bir hududda yashovchi qarindosh oilalar tushuniladi, urug‘ va aymoq so‘zlari bir xil ma‘nolda qo‘llaniladi. Aymoq atamasi qalmoq, barmoq, tarmoq, maymoq kabi qadim turkiy so‘zlardan bo‘lib, bugungi kunda Buriyatiya va Oltoy o‘lkalarida kichik ma‘muriy hududlar – tuman ma‘nosida ishlatiladi. Bu so‘z mo‘g‘ul tilida ham bo‘lib, nisbatan kattaroq, ma‘muriy-hududiy birlikni bildiradi.

Aymoq atamasi turkiy qabilalardan birini bildirishdan tashqari bir qancha qabila va urug‘lar ittifoqi ma‘nosiga ham ega (bu yerda maxsus aymoq urug‘i haqida gap bormoqda – ta‘kid bizniki). 1924 yilgi aholi ro‘yxati ma‘lumotlariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida to‘rt mingga yaqin kishi o‘zini aymoq deb ko‘rsatgan<sup>5</sup>. Har bir so‘zning bir necha ma‘nosi bo‘lgani kabi el so‘zining ham quyidagi ma‘no nozikliklari mavjud:

“El eng qadimgi tub turkiy so‘zlardandir. Avvalo bir joyning odamlari ma‘nosini bildiradi: Xorazm eli, Koshg‘ar eli. Bir qabilaga mansub kishilarga qo‘llanadigan: qipchoq eli, mang‘it eli. *El* so‘zi millat, xalq ma‘nolarini ham ifodalaydi. Ilgari “El bayrog‘i” gazetasi ham chiqqan. Yurt, mamlakat ma‘nolarida ham qo‘llanadi. Masalan, qozoq eli deganda qozoq xalqini ham, Qozog‘istonni ham tushunish mumkin. Yoki bo‘lmasa, chet ellar deganda xorijiy xalqlarni ham,

---

<sup>4</sup> Қораев С.Этнонимика.Т.,Ўзбекистон,1979.23 б.; Зиётов Зойир. Турон қавмлари.Т.,Истиклол, 2008. 230 б.

<sup>5</sup> Иброҳимов А. Ёруғлик.Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006.180-бет.

xorijiy mamlakatlarni ham anglash va anglatish mumkin. El iborasida, shuningdek, ittifoq, totuvlik, ahillik ma'nolari ham bor. El yovning zididir. "El bo'ldi" deganda do'stlashdi, birlashdi ma'nosi anglashiladi. Elning ana shu mazmunidan elat atamasi kelib chiqqan"<sup>6</sup>.

Albatta, el bor joyda uning jamini bildiruvchi elat bo'lishi shart. Shuning uchun ham "Elat atamasi, eng avvalo, qabilalar ittifoqini, kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligini bildiradi. Uni xalqning millat bo'lib shakllanishidan oldingi bosqichi deb ham ataydilar. Elatning kelib chiqishiga bir-biriga ko'p jihatdan yaqin bir necha qabilalarning uyushuvi asos bo'lgan. Kishilarning elat-elat bo'lib, bir hududda yashashlari ular orasidagi qon-qarindoshlik, umumiy manfaatdorlik his-tuyg'ularini kuchaytirgan"<sup>7</sup>.

Etnonimlashuv – so'zning etnonimga aylanishi. Etnonimika esa tilshunoslikning urug', qabila, xalqlarning nomlarini o'rganuvchi bo'limi. Bu bo'lim o'z ichida ikkiga bo'linadi: Umumiy etnonimika va xususiy etnonimika. Umumiy etnonimika fanning dunyoda mavjud va yo'qolib ketgan xalq, qabila, urug', ellatlarning nomlarini ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etish yo'lidan boradigan bir sohasi. Etnonimlar, ularning kelib chiqishi va taraqqiyoti masalalari tilshunoslarninggina qiziqish doirasida qolib ketmagan, balki tarixchi va etnograflarning ham qiziqish sohalarining markaziy o'rnida turgan. Bu soha bo'yicha N.N.Mikluxo-Maklaya nomli etnografiya instituti xodimlari maxsus tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, V.A.Nikonov mas'ul muharrirligida 1970 yilda nashr etilgan "ЭТНОНИМЫ" nomli maqolalar to'plamini misol sifatida keltirish mumkin<sup>8</sup>. Unda yigirma yettita olimning etnonimika doirasida tayyorlangan maqolalari berilgan bo'lib, Y.V.Uxmilining maqolasida makro va mikro etnonimlar to'g'risida fikr yuritilgan<sup>9</sup>.

Bu sohada professor X.Doniyorov tadqiqot olib borib, 99 urug'-qabila birlashmasidan shakllangan o'zbek urug'larining tarqalishi va sonini tarixiy

---

<sup>6</sup> Иброҳимов А. Ёруғлик.Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – В:181

<sup>7</sup> Ко'rsatilgan asar. – В:181

<sup>8</sup> Этнонимы.М.,Наука, 1970. 268 с.

<sup>9</sup> Ухмылина Е.В. Названия и прозвища русского населения горьковской области // Этнонимы.М.,Наука, 1970. с.254-265.

manbalar asosida tadqiq qilgan<sup>10</sup>. Olimning fikricha bu urug'-qabila nomlari etnotoponimlar uchun asos vazifasini o'taydi.

A.Otajonova mamlakatimizdagi etnotoponimlarni o'rgangan bo'lsa<sup>11</sup>, N.Oxunov esa Farg'ona etnooykonimlariga to'xtalgan<sup>12</sup>. A.Turobov Samarqand viloyatidagi etnooykonim, toponimik aniqlagichli etnooykonimlarga e'tibor qaratilgan<sup>13</sup>. Xususiy etnonimika sifatida "O'zbek etnonimikasi" ni ko'rsatish mumkin<sup>14</sup>. O'zbek etnonimi xususiy etnonimning bir turi sifatida quyidagi taraqqiyot bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) o'zbek etnonimi tarixi;
- 2) o'zbek etnonimining bugungi holati<sup>15</sup>.

O'zbek tilidagi etnonimlarni ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

1. Umumturkiy va o'zbek xalqiga tegishli etnonimlar.
2. Umumturkiy bo'lmagan etnonimlar<sup>16</sup>.

Umuman etnonimlarning, shu jumladan, turkiy etnonimlarning yozilishi masalasi ham bahsli. Etnonimlar atoqli otlar tarkibiga kirar ekan, demakki, ularni ham bosh harf bilan yozish shart. Ammo bugungi kungacha gap boshida kelgan etnonimning nomigina bosh harf bilan yoziladi. Qolgan hollarda esa har qanday etnonim nomi negadir kichik harf bilan yozilishi ommalashgan. Ularning nomlaridan joylarning maxsus nomi bo'lishi uchun va etnotoponimlar shakllanishi uchun manba sifatida foydalanish ham mumkin.

Mamlakatimizdagi ko'p toponimlar etnotoponimlar sanaladi. Masalan, Qoraqalpoq (q.), Qipchoq (shahar nomi), Sariq (shahar nomi), Boysun (tuman nomi), Koson (tuman nomi), Qirg'iz (q.), Nayman (q.), Chiroqchi (q.), Ayoqchi (q.), Beshqozoq (q.), Boyqozoq (q.), Avoqli (q.), Qoraxitoy (q.) va boshqalar. Shu

---

<sup>10</sup> Қаранг: Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари.Т.,1968.98 б.

<sup>11</sup> Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. Т., Фан, 1997. ; Отажонова А. Хоразм этнотопонимлар вауларнинг луғавий асослари. НДА. Т.,1997.

<sup>12</sup> Охунов Н. Фарғона водийси этноойконимлари // ЎТА. Т., Фан, 2000. 1-сон. Б. 20-23.; Охунов Н. Этноойконимларнинг ясалиши // Тил ва адабиёт таълими. Т., 2000. 4-сон. Б. 38-43.

<sup>13</sup> Туробов А. Самарқанд вилояти этноойконимларининг таҳлили. ФФНД. Т., 1999. ; Туробов А. Топонимик аниқлагичли этноойконимлар // ЎТА.Т.,Фан, 2000. 2-сон. Б. 30-32.

<sup>14</sup> Қаранг: Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари.Т.,1968.98 б.

<sup>15</sup> Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. -Т.,Шарқ, 2001. -464 б.

<sup>16</sup> Аҳмедов Б.Ўзбек улуси.Т.,А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,1992.152б.

o‘rinda o‘zbek etnonimiga maxsus to‘xtalishni lozim deb bilamiz: “Bizningcha, o‘zbek atamasi xuddi turk so‘zining ekvivalenti – ma’nodoshi bo‘lib, o‘ziga ishonuvchi, mustaqil fikrlovchi va ish tutuvchi, botir (Abdurauf Fitrat ham “Abulfayzxon” tragediyasida mana shu so‘zni ishlatib, “O‘zbek o‘g‘lonlari botir bo‘lurlar” deydi), mard, yovqur, chekinmas singari fazilatlarni anglatgan. Shunday fazilatli kishilarga nisbatan o‘zbek iborasi ishlatilgan. Bora-bora ota-onalar orasida o‘g‘lim shunday fazilatlarga ega bo‘lib, kamol topsin degan niyat bilan farzandiga O‘zbek deb ism qo‘yganlar.

O‘zbekxonga O‘zbek deb ism qo‘yilibdimi, demak, bunday odat to u tug‘ilguncha ham rasm bo‘lgan”<sup>17</sup>. Tarixdan shu narsa ma’lumki, o‘zbek etnonimi X asrda Dashti Qipchoqdagi qabilalar bilan birgalikda hozirgi O‘zbekiston zaminiga kirib kelgan va bu yerdagi boshqa turkiy qabila-urug‘larga qo‘shilib ketgan.

Sho‘ro hukumati 1924 yilda milliy davlatlarni tashkil qilib, milliy chegaralarni tuzishi orqali qozoq, tojik, qirg‘iz etnonimlari kabi o‘zbek etnonimi ham alohida bir davlatning nomiga asos bo‘ldi va mana shu davlatdagi aholining ko‘pchilik qismini tashkil qilgan etnonimlardan biri bo‘lib qoldi.

“Turk so‘zi tarixiy va zamonaviy ma’nolarga ega. Turk degan so‘z, eng avvalo olis o‘tmishda Turon mamlakatida tavallud topgan va yashagan xalqning nomini bildiradi. Turk eli deyilganda Turon mamlakati tushunilgan – bu birinchidan. Ikkinchidan, turk degan so‘z sifatni ham anglatgan. Turk eli deyilganda esa mard, yovqur, qo‘rmas, bahodir, mustaqil xalq ma’nosi anglashilagan. Majoziy ma’noda sifat vazifasini o‘tab, ko‘rkam, qomati kelishgan, sog‘lom, jismonan baquvvat, chidamli, chiniqqan, sabrli, bosh tushganni Tangrining buyrug‘i deb bilib, shukur qiladigan odam tushunilgan. Turk o‘g‘lon degani shunday ma’naviy va jismoniy fazilatlarga ega yigitdir. Shuningdek, go‘zal ma’nosini ham bildirgan. Ma’lumki, qadimda tilimizda “o” tovushi bo‘lmagan, “k” o‘rnida “g” ham ishlatilgan. Shundan kelib chiqsak, go‘zal so‘zi qadimda “ko‘zal”, keyinchalik hozirgi shaklini kasb etgan. Turk so‘zi “go‘zal” so‘zi o‘rnida ham

---

<sup>17</sup> Иброхимов А. Ёруғлик.Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. 34-бет.

ishlatilib, ko'rganning suqi, his etganning iqi tushadigan darajada go'zallikka nisbatan ishlatilgan va shunday fazilatlar sohibasi bo'lmish maftun etuvchi suluvni bildirgan.

Shoir Hofiz Sheroziy turk iborasini ikki xil ma'noda – ham turkiy millatga mansublik, ham maftunkorlik ma'nolarida qo'llangan, buni badiiy adabiyotda so'z o'yini – so'z san'atining bir ko'rinishi deyiladi. Mushohada qilib ko'ring: “Agar ko'nglimni olsa o'shal turki jonon, Qaro xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni”. Yuqoridagi misollardan ham ko'rinib turibdiki, etnonimlar ham so'zlardan, aniqrog'i, tanlangan so'zlar sanaladi: “Etonim – boshqa so'zlar kabi til qonunlarga bo'ysunadigan so'zdir”. Xullas, etnonimlar orfografiyasi masalasi-ni jiddiy o'ylab ko'rish vaqti keldi: uyg'ur, o'zbek, qozoq, tatar shaklida emas, balki Uyg'ur, O'zbek, Qozoq, Tatar shaklida yozish ularning onomastik tizim-dagi mavqeini ko'rsatib ham turadi.

O'zbek etnonimlari lug'atining imlo va izohli shakllardagi mukammal ko'rinishlarini tayyorlash zaruriyati sezilib turibdi. Etonimlar, ularning tarixi va taraqqiyoti masalalariga tarixchi olimlar ham e'tibor berishib kelishmoqda. Masalan, Ahmadali Asqarov o'zining “O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” nomli kitobida xalqimizning kelib chiqish tarixi, ularning o'z davridagi ahamiyati, bugungi kundagi holatiga e'tibor qaratgan. Tarixchi olimlardan yana biri bo'lgan Iso Jabborovning “O'zbeklar” nomli monografiyasida o'zbeklarning turli urug', qabilalardan kelib chiqqanligi, an'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyatiga keng to'xtalangan<sup>18</sup>. Unda mamlakatimizdagi urug' qabilalarning o'tmishi, ayni vaqtdagi holati masalasiga e'tibor berilganligi diqqatga sazavordir<sup>19</sup>.

---

<sup>18</sup> Жабборов И. Ўзбеклар.Т.,Шарк нашриёт матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2008. – Б:238.

<sup>19</sup> Ko'rsatilgan asar. B: 10-28.

## **Birinchi bob bo'yicha xulosa**

1. Har bir etnonimning o'z ma'nosi bor. Ba'zi etnonimlar juda qadimiy nomlar bo'lganidan ma'nosini tushunish qiyin. Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo'lib, ma'lumot tashishga xizmat qiladi, shu sababli etnonimlarni o'rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega.
2. Qo'ng'irotlar tarixi haqida ma'lumot beruvchi muhim tarixiy manbalardan biri XIV asrda yashagan mashhur sharq tarixchisi Rashididdin Fazlulloh Qazviniy (Hamadoniy)ning "*Jome' at-tavorix*" asaridir. Taniqli o'zbek olimi X.Doniyorovning ta'kidlashicha, Rashididdinning ushbu asari shu vaqtgacha g'arb va sharq olimlari tomonidan mo'g'ullar deb atab kelinayotgan o'zbek (turkiy) qabila va urug'larining aslida kim ekanligini aniqlash uchun bevosita kalit bo'lib xizmat qiladi.
3. Etnonimlashuv – so'zning etnonimga aylanishi. Etnonimika esa tilshunoslikning urug', qabila, xalqlarning nomlarini o'rganuvchi bo'limi. Bu bo'lim o'z ichida ikkiga bo'linadi: Umumiy etnonimika va xususiy etnonimika. Umumiy etnonimika fanning dunyoda mavjud va yo'qolib ketgan xalq, qabila, urug', ellatlarning nomlarini ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etish yo'lidan boradigan bir sohasi.
4. Etnonimlar orfografiyasi masalasi hususida gap ketganda jihatni jiddiy tahrir qilish kerak nazarimizda. Masalan: uyg'ur, o'zbek, qozoq, tatar shaklida emas, balki Uyg'ur, O'zbek, Qozoq, Tatar shaklida yozish ularning onomastik tizimdagi mavqeini ko'rsatib ham turadi.



## II BOB. ETNONIMLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

### 2.1. Etnonimlarning hosil bo'lishi

Barcha lug'aviy birliklar kabi etnonimlar ham o'zbek tili lug'at boyligining tarkibiy qismidir. Shu sababli til leksikasiga xos rivojlanish qonuniyatlari etnonimlar uchun ham xosdir. Shu bilan birga etnonimlar ayrim o'ziga xos yasalish usullari va grammatik tuzilishiga ko'ra hozirgi davr o'zbek tili leksemalaridan ba'zi jihatlari bilan farqlanadi.

Avvalo etnonimlar atoqli otmi yoki turdosh ot deyilgan masala muammodir. Bundan qat'iy nazar, etnonimlar toponim va antroponimlardan ba'zi tomonlari bilan farqlanadi. Quyida ularga qisqacha to'xtalamiz:

Etnonimlarning aksariyati eng qadimiy davrlar mahsulidir. Shu sababli etnonim asosida yotgan leksema, etnonimni hosil qilgan qo'shimcha maxsus tekshirish asosidagina oydinlashadi;

Etnonimlar tarixiy-etimologik jihatdan turkiy qatlamga mansubdir. Mo'g'ul tili elementlarini istisno qilganda (*nayamn, do'rmon, mang'it va b.*), arab, fors va o'zga til unsurlari deyarli uchramaydi. Bu hol etnonimlarning qadimiy turkiy etnik guruhlar nomi ekani bilan bog'liqdir. Ba'zi juz'iy holatlar keying davrlar mahsuli bo'lib, o'zbek etnonimiyasi tizimini xarakterlay olmaydi;

Etnonimlar ularni hosil qilishda qatnashgan negizlarning turkiy, qadimiy turkiy so'zlar ekani bilan ham xarakterlanadi. Bu so'zlarning ko'pchiligi etnonimlar tarkibidagina uchrashi bilan ajralib turadi (*qiyot, qangli, pitak, achamayli va b.*). Mana shu xususiyat ko'pgina etnonimlarning ko'pchilik turkiy xalqlar uchun mushtarak bo'lishiga sababchidir;

Etnonimlarni hosil qiluvchi yasovchilar qadimiydir va ularning ko'pchiligi hozirda nofunktsional morfemalardir. Masalan: *turk, qo'ng'iroq, chuyut, sayot, mang'it, nal, po'r, kanjak, market va b.*

Bu qo'shimchalarning so'z yasash xususiyatlari, ma'no va etimologiyasi tarixiy aspektidagi maxsus kuzatishlarni talab qiladi. Shu bilan birga etnonimlar

tarkibida hozirda ham funksional bo'lgan ba'zi qo'shimchalar uchraydi: *-li(cho'michli, bolg'ali, oytamg'ali, qo'shtamg'ali, tortuvli, oyli), -chi (uychi, to'qchi, ayronchi, baqirchi), -ma (dug'ma, tuma, chig'irtma), -lar (yemaklar, tekrinlar), -s, -z (uyas, uramas, o'lmas, chinoz, nekuz, hukus, zarmas, g'uralas)* va boshqalar. Ushbu qo'shimchalar yordamida hosil qilingan nomlar tarixan keyingi davr mahsuli bo'lib, bu hol ushbu qo'shimchalarning ba'zi qo'shma etnonimlar tarkibida ham uchrashida yorqin ko'rinadi.

Etnonimlar o'zining original leksemalariga egaligi bilan toponim va antroponimlardan farqlanadi. Bordi-yu, joy nomlari va kishi nomlari tildagi mavjud so'zlar asosida hosil qilinsa, etnonimlar asosida yotgan leksemalarning ko'pchiligi etnonimlarning o'zi uchun tegishlidir. *Chunonchi: tortuvli, saroy, qorchin, yuz, chartoq, chuyut jam, keskak, kenagas, kesovli, laqay, tuja, qiyg'ochli;*

Etnonimlarning aksariyati turkiy xalqlar etnik guruhlarining mushtarak nomlaridir. Bu hol etnonimlarning hali turkiy elat va xalqlar mustaqil etnoslar (elat, xalq) bo'lib ajralib chiqmasidan avval paydo bo'lganidan, bu jihatdan ular juda qadimiy nomlar ekanidan darak beradi;

Toponim va antroponimlarning hosil bo'lishida morfologik usul kam qatnashadi, toponim va antroponimlar, asosan, sitaktik va onomastic konversiya usulida yasaladi. Etnonimlarda esa, aksincha, nomni hosil qilishning asosiy usuli affiksatsiyadir. Bu usulda yasalgan nomlar qadimiy original etnonimlar bolo'lib (*achamayli, ayronchi, aynli, avoxli, irg'oqli, zambiri, ponchi, i'rtoqi, buzan, balg'i, baliqchi, begizi, galabek, jastavon, jalovli*), sintaktik usulda yasalgan etnonimlarning ba'zilari mana shu etnonimlarning qo'shilishidan hosil bo'lgan: *beskhal, yettiurug', jomonsaroy// yomonsaroy, naymansaroy, oqmang'it, to'qmang'it, galatanmak, buyrako'sa, botirsaroy, bo'ronjo'z, parchayuz, parchamang'it*. Bu xususiyat etnonimda oddiy so'zlarga moyillik xususiyatining kuchliligidan darak beradi;

Etnonimlarning aksariyati hozirgi til nuqtai nazaridan bo'linmas o'zakdir. Ularni o'zak, negiz va qo'shimchalarga ajratish tarixiy (diaxron) nuqtai nazaridandir;

Etnonimlar negizida yotgan lugʻaviy negizlarning aksariyati turdosh leksemalardir: *kal, naqi, taka, choʻchqaxoʻr, oʻtar, taroqli tuja, gʻerz, gucha*. Shu bilan birga baʼzi etnonimlar antroponimlar, patronimlar, toponimlardan ham hosil qilingan: *tilovmat, brdi, togʻayboy, begankal* va b. Baʼzi etnonimlarning oʻzidan hosil qilingan etnonimlar ham uchraydi. Bu etnonimga yaʼni negizning etnonimligi qoʻshimcha qoʻshib hosil qilinadi (*toymoqli, taroqli*) yoki etnonimlar qoʻshilib, qoʻshma nom yasaladi: *naymansaroy, parchayuz, boygʻundumangʻit, qirgʻizsaroy*;

Etnonimlarga xos muhim xususiyatlardan biri ularning boshqa tip atoqli otlarni hosil qilishda negizlik rolini oʻynashidir. Chunonchi, oʻzbek tilidagi anchaghina toponim va antroponimlar etnonimlarga nisbat berish orqali hosil qilingan. Bunday nomlar nomshunoslikda etnonimlar va etnoantroponimlar deb yuritiladi. Etnonimlarning ushbu xususiyati ham bu tip nomlarning turdosh soʻzlarga yaqin turishidan darak beradi.

Yuqorida oʻzbek tilida etnonimlarning yasalishi bilan bogʻliq umumiy xususiyatlarga toʻxtaldik. Quyida oʻzbek etnonimlarining grammatik tuzilishi va yasalashi xususiyatlarini kengroq izohlashga oʻtamiz.

## **2.2. Etnonimlarning grammatik tuzilishi**

Etnonimlar negizida yotgan lugʻaviy oʻzaklar, yasama leksema hamda soʻz shakllari turli-tumandir. Mana shu xususiyat oʻzbek tilidagi etnonimlarni grammatik strukturasi koʻra oʻrganishni va ularning lisoniy tabiatini ochishni talab qiladi.

Oʻzbek tilidagi etnonimlarning lisoniy tuzilishini kuzatish ularni Grammatik shakliga koʻra ikki guruhga boʻlinishi koʻrsatdi: soda etnonimlar, qoʻshma etnonimlar va ajralmas tuzilmalar.

Aralash tuzilmalar ham sodda va qoʻshma etnonimlarning qoʻshilmasidan iborat boʻladi. Masalan: *qoʻshtamgʻali* kabi nomlarda ikki soda leksemaning (*qoʻsh* va *tamgʻa*) va *-li* qoʻshmasining ishtiroki mavjud boʻlib, etnonim shu holatida qoʻshma emas, soda (yasama) etnonim deb tushuniladi.

## *Sodda etnonimlar*

Sodda etnonimlar grammatik tabiatiga ko'ra qo'shma birikmali, juft va takror tuzlimali etnonimlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda asosiy mezon etnonim tarkibi bitta so'zdan iborat bo'lishidir.

Sodda etnonimlarni ularni tashkil qilgan lisoniy materialning tuzilishiga qarab ikkiga ajratish mumkin. Tub etnonimlar, yasama etnonimlar.

O'zbek etnonimiyasidagi nomlarning sezilarli qismini tub etnonimlar tashkil qiladi. Ularni tub deb bilish ikki xususiyatga asoslanadi: Etnonim aslida qadimiy tub leksemasidan iborat bo'ladi: *qirq, chuyut, pal, noqi, uzb yuz, juz, as* kabi.

Etnonim hozirda bo'linmas o'zak tarzida tushuniluvchi so'zdan iborat bo'ladi. Tub tuzilmali etnonimlarga quyidagi tip nomlarni kiritish mumkin:

Rang-tus so'zlarga nisbiy berilgan etnonimlar: *oqto'nli, oqpichoq, oqchepkan, oqmanglit, qorako'z, qoraqo'ylik, oqtelpak, oqchopon, parchaqora;*

Son, miqdor tushunchalarini anglatuvchi so'zlardan iborat etnonimlar: *galatentak, galato'p, beshuyli, beshkal, yettiurug', uchuruvli, uchurug', oltio'g'il, pajayuz, uzun;*

Turli unvon va titullarga nisbat berilgan etnonimlar: *oqto'g'li, qorovul, mirishkor, bovurchi, turg'oq;*

Ba'zi jug'rofiy terminlarga nisbat berilgan etnonimlar: *o'troqi, toshloqi, o'rmonchi, o'rmonkat* va b.

Tub, ya'nib o'linmas o'zak xarakteridagi nomlarga ba'zi xalqlar nomi nisbat berilgan etnonimlarni, shuningdek, o'zak tiliga o'tgan boshqa qardosh va noqardosh qabila, urug' elat, xalq va millat nomlarini ko'ris mumkin.

Mana shu tipli nomlar haqida E.V.Sevortyan aytgan quyidagi fikrni keltirish o'rinlidir: "Aniqsa, arab tilidan qo'shma shakllar ko'pgina fonetik shakllarni yuzaga keltiradi. Buning sababi bu birikmalar boshidayoq turkiy til asosida shakllangani u uchun shunday fonetik shakllar evolyusiyasi yuzaga kelgan". Keltirilgan fikrni o'zbek tilidagi ba'zi toponimlar va kishi nomlariga nisbat berilgan etnonimlar ham tasdiqlaydi.

Yasama strukturali sodda etnonimlarda nom tarkibidagi qo'shimchadan

nomning yasama ekanligi, uni o'zak va qo'shimchaga ajratish imkoni borligi yaqqol ko'rinib turadi.

### ***Qo'shma etnonimlar***

Qo'sham, birikmali, juft va takror tuzilmali etnonimlar birdan ortiq leksemaning qo'shilishidan iborat bo'lib, ularni grammatik tarkiblarga ajratish imkoni mavjud bo'ladi va bunday nomlarning aksariyati qadimiy emas, balki nisbatan keyingi davrlarning mahsuli hisoblanadi. Masalan *sario'roqli*, *sariqipchoq*, *oqmang'it*, *qoramang'it* etnonimlarida o'roqli va qipchoq etnonimlari qadimiydir, ularning qo'shilmasi keying davrlar mahsulidir. Shuningdek, *oqmang'it*, *qoramang'it* nomlarida *mang'it* etnonimi qadimiydir, *oq*, *qora* atributlari qo'shib yasalgan etnonimlar esa keyingi hosiladir.

Yasama etnonimlar lisoiy tarkibiga ko'ra:

1. Qo'sham etnonimlar;
2. Birikmali etnonimlar;
3. Juft va takror etnonimlarga bo'linadi.

Ushbu etnonimlarni xarakterlovchi asosiy belgi nom tarkibida birdan ortiq leksemani ishtirok etishidir. Masalan, qo'shma etnonim ikki so'zning qo'shiluvidan, birikmali etnonim ikki so'zning birin-ketin kelib, bir nom vazifasini bajarib yaxlit leksema maqomiga ega bo'lishidan, juft yoki takror etnonimlarda ikki so'zning juftlashi yoki takrorlanib kelgan holda bitta nom vazifasini o'tashidan iborat. Qo'shma, birikmali, ba'zi takror va juft etnonimlarning grammatik tuzilishiga keying sahifalarda bu nomlarning yasalish munosabatlari bilan kengroq to'xtalamiz.

### **2.3. Etnonimlarning yasalishi**

Etnonimlarning yuzaga kelishida yangi nomlar hosil qilish asosiy o'rin tutgan. Etnonimlar asosan uch usulda hosil qilingan: 1) lug'aviy-ma'noviy konversiya usuli; 2) morfologik yoki qo'shimchalar qo'shish usuli; 3) sintaktik usul.

## *Lug‘aviy-ma’noviy konversiya*

Ma’lumki, til lug‘at tarkibi bilan so‘z yasash o‘zaro zich bog‘liq sohalardir. A. Hojiyev “So‘z yasash, qanday usul bilan bo‘lsa-da, yangi so‘z hosil qilishdir”. Demak, leksikaning so‘z yasalishi bilan aloqasi, avvalo, yasash natijasida yangi leksemaning hosil bo‘lishi va tillug‘at tarkibining boyishidir. Shu bilan birga, o‘z navbatida leksika so‘z yasalishiga lisoniy material beruvchi manba hamdir. Yangi yasalmalar asosida leksema yotadi. Demak, u so‘z yasalishi uchun, asosdir.

Ammo, A.Hojiyev ta’kidlagandek, bu yaqinlik ikki sohaning mustaqil ekanini inkor qilmaydi: “So‘z yasalishining leksikologiyaga yaqinligi va uning leksikologiya bahsiga mansubligi haqida gapirganda so‘z yasalishi natijasida hosil bo‘ladigan birikning leksik birlik, leksema bo‘lish va bu birlik leksikologiyaning o‘rganilishining leksikologiyaga yaqinligiga ham, uni leksikologiyaga kiritish ishlarda so‘z yasalishi leksikologiya bahsiga mansub degan qarash uchramaydi” .

So‘z yasalishi bilan leksikologiya orasidagi zich aloqa, ayniqsa, so‘z yasalishida leksik-semantik usul, leksik usul, semantik usul yoki konversiya usuli, onomastik konversiya kabi tushunchalarning mohiyatida yorqin ifodalangan.

Biz lug‘aviy-ma’noviy konversiya deb atayotgan usul biror so‘zning boshqa so‘z vazifasiga o‘tishi va yangi ma’noda qo‘llanishini ifodalaydi. Odatda, konversiyaga uchragan so‘zda kategorial o‘zgarish yuz beradi, u bir so‘z turkumidan boshqasiga o‘tadi. Bunday ko‘chish so‘z ma’nosini ham o‘zgartiradi. U yangi vazifa va ma’noga ega bo‘ladi. Demak, konversiyada funksional, semantik va kategorial o‘zgarish yuz beradi.

So‘z yasashning konversiya usulida boshqa vazifaga o‘aytgan so‘zning shakliy holati asosiy rol o‘ynaydi. Bu quyidagilarda ko‘rinadi: 1) so‘z o‘z mavjud shakily va tarkibida hech qanday o‘zgarish yuz bermagan holda yangi vazifaga ko‘chadi; 2) so‘z shaklida yuz beruvchi o‘zgarish yangi vazifaga ko‘chgan keyingi davrda yuz berishi mumkin. Masalan: *qoramang‘it etnonimi tarkibida mang‘it* so‘zi o‘sha shaklda ko‘chgan, qora so‘zi unga keyinchalik qo‘shilgan. Mang‘it deb nomlanuvchi etnosni boshqa mang‘it nomli etnosdan farqlash uchun unga qora so‘zi qo‘shilgan. *Oqmang‘it, ochmang‘it, cholmang‘it, qoramang‘it,*

*bog'undimang'it, to'qmang'it* kabi etnonimlarning mavjudligi ham buni tasdiqlay oladi. Konversiya usulida etnonim vazifasiga o'tuvchi so'zlar leksik-morfologik tarkibiga ko'ra quyidagi guruhlarini tashkil qiladi.

Ot turkumiga mansub leksemalar: *bolta, chelak, cherik, laylak, garg'a, ko'rpa, burloq, boymoq, qilich, temirchi, po'latchi, buyrachi va b.*

Sifat turkumiga mansub leksemalar: *soqov, toz, chandir, shirin, qora, sari//sariq, qizil, uzun, yalang'och, ko'sa, qilichli va b.*

Son turkumiga mansub leksemalar: *ming, yuz, nayman (sakkiz), qirq, to'g'iz.*

Ba'zi genetik jihatdan yasama, ammo hozirda tub so'z deb tushuniluvchi leksemalar: *saydov, saroy, so'zoq, uvoq, qo'chqor, qozon, ilon, bo'rboy, tegana, halaj va b.*

Hozirda ma'nosi qorong'ilashgan ba'zi tub, arxaik leksemalar: *andoz, andi, arg'u, arg'in, oyrot, kadan- kidan, mesit, mitin, laqay, tatar, orlot, chuyut, qiyot, tegana, cherik, qitay, uyrot, qozoq va b.*

Tub yoki yasama strukturaga ega bo'lgan o'zlashma leksemalarga nisbat berilgan etnonimlar: *arab//arap, jo'gi, mo'ltoni va b.*

Kishi atoqli otlari asosida hosil bo'lgan etnonimlar: *eshmattoy, niyozboy, ablazizva b.*

### *Morfologik usul*

Etnonimlarning yasalishi turkiy tillardagi so'z yasashning umumiy qonuniyatlari va usullariga bo'ysunadi. Etnonimlar yasalishida morfologik va sintaktik usullar alohida o'rin tutadi. Ammo morfologik usulda hosil qilingan etnonimlar o'ta qadimiyligi hamda qadimiy davrlardan qolib kelayotgan lisoniy meros ekani bilan xarakterlanadi. Bu xususiyat ko'pgina etnonimlarning yasalish strukturasi ancha murakkabligida ko'rinadi.

Turkiy etnonimlarning yasalishi masalasiga turkologlardan N.A.Baskakov, D.Y.Yeremyev, A.P.Potapov va Turkman tilshunosi S.Otaniyozov to'xtalgan.

Etnonimlarni tadqiq qilish munosabati bilan etnonimlar tadqiqida o'zbek nomshunoslari A.Otajonov hamda A.Turobov ma'lum mulohazalarni bildirishgan. Shuni ta'kidlash lozimki, ko'pgina toponimlar etnonimlardan yasaladi.

Etnotoponim tarkibidagi yasovchilar ko‘p holda toponimga emas, unga asos bo‘lgan etnonimga tegishli bo‘lib, toponimni emas, etnonimni yasaydi. Bu holda qo‘shimcha toponim tarkibida, turg‘un, nofunktsional qoldiq sifatida mavjud bo‘ladi. Man ashu holat etnotoponim tarkibida uchraydigan so‘z yasovchi morfemalarni yasovchi emas, balki “formant” deb baholashga asos bo‘ladi. Shu sababli A.Otajonova va A.Turobovlar tarkibida qo‘shimcha mavjud bo‘lgan toponimlarni “*formantli nomlar*”, qo‘shimchalarni esa “*-li formanti*” kabi nomlashga majbur bo‘lishgan. Masalan, A.Otajonova –li formanti –lar formanti, –cha formanti haqida, A.Turobov esa *-li (-lu), -chi, -liq // -lik//luq), -loq, -cha, -chak, -choq, -k, -ka, -lar* o‘zlashma morfemalardan *-i, -on, -yon, -ho, -t* formantlari haqida fikr yuritishgan.

A.Otajonova formantlarni etnonim yasovchilardan farqlashga harakat qilgan. U “apellyativ asosli nomlar” sarlavhasi tagidagi tahlillarida tub so‘z xarakteridagi (Mitan, Machay, Baqay, Oyrot kabi) etnonimlar tarkibidagi qo‘shimchalarni, jumladan –t affiksi va uning –it//–ut/–g‘ut variantlarini (Mang‘it, Kerayt, sayat, Bayat, Qiyat), –ak (–ek, –ik, –uk, uq, –q) qo‘shimchasini (Bijanak, Chulak, Qipchaq, Karvak, Manaq), shuningdek, –man (Turkman, Qaraman), –n (an, –on, –yon) qo‘shimchalarini (Toqchiyon, Tirgaron, Pirsiyon) etnonim yasovchilar deb ta’riflaydi. Ammo Otajonova bu qo‘shimchalar toponimni yasayaptimi yoki etnonimni – buni aniq aytmagan. Lekin uning “apellyativ asoslari nomlarni sinxron planda tekshirsak, ularning hech qanday ma’noli bo‘llaka ajralmaydigan tub nomlar ekanligi ma’lum bo‘ladi”.

A.Turobov etnonim hosil qiluvchi qo‘shimchalarini ham, formant xarakteridagi yasovchi morfemalarni ham farqsiz ravishda tahlil qilgan. Demak keltirilgan fikr “Formant” deb nomlanayotgan tushunchaga aniqlik kiritish lozimligini ko‘rsatadi. Bizning nazdimizda “formant” sifatida atoqli ot tarkibida uchraydigan, ammo uni yasashda ishtirok etmaydigan, atoqli otga asos bo‘lgan leksemaga tegishli, undan qoldiq sifatida saqlanib qolgan morfemalar tushunilishi kerak. Masalan, Kashtali, Yettiuyli, Beklar, Taroqli, Po‘latchi, Kaltatoy, Toponimlari tarkibidagi *-li, -lar, -chi, -toy* qo‘shimchalari toponim uchun



fomant, etnonim uchun yasovchidir. Ular toponim tarkibida nofunkcional bo‘lib, formal ravishda uchragani uchun ham “formant” deb tushinilishi kerak.

Etonimlarni hosil qilishida tildagi mavjud so‘z yasovchi morfemalar ishtirok etadi. Lekin bu morfemalar etnonimlarni yasashda qatnashgan davrning qadimiyligi, hozirda ham iste’molda ekani yoki yo‘qligiga ko‘ra farqlanadi. Mana shu jixatlarga ko‘ra etnonimlar tarkibida uchraydigan qo‘shimchalarni ikkiga bo‘lish mumkin: 1. *Tarixan funksional qo‘shimchalar* va 2. *Tarixan va zamonaviy (sinxron) funksional qo‘shimchalar*. Tarixan funksional qo‘shimchalar etnonimlar yasashda o‘tmishda qatnashgan bo‘lib, hozirda yangi hosil qiluvchi nofunkcional, etnonimiya tizimi uchun arxaik morfemalardir. Bunday qo‘shimchalar *-di// -ti, -jin, -r, -s// -z, -t// -d, -boy, -chi// -ji, -chin// -tin, -ch// -j, -q// -oq, -qu// -g‘u -man// -mon, -n, -g‘a // -g‘i, -yon// -on* kabi qo‘shimchalarni kiritish mumkin. Ushbu qo‘shimchalarning arxaik va noiste’molligi umuman o‘zbek tili so‘z yasash tizimi nuqtai nazaridan emas, balki etnonimiya tizimi nuqtai nazaridan belgilanmoqda.

Tarixan va zamonaviy funksional qo‘shimchalar o‘tmishda etnonimlarni hosil qilishda qatnashgan va o‘zbek tili so‘z yasash tizimida hozirda iste’molda bo‘lgan qo‘shimchalardir. Bu tip morfemalar arxaik qo‘shimchalarga nisbatan etnonimlar tarkibida o‘z uchraydi: *-li, -chi, -lik// -lik, -ma, -v(-uv) -lar* va b.

Quyida qayd qilingan qo‘shimchalarning etnonimlarni hosil qilish xususiyatlariga to‘xtalamiz. Taxlilni hozirda ham funksional bo‘lgan qo‘shimchalardan boshlaymiz.

*-chi* qo‘shimchasi, bu qo‘shimcha o‘zbek adabiy tilidagi sermahsul qo‘shimchalardan hisoblanadi. Bu qo‘shimchani etnonimikadagi yasovchilik fazilati va xususiyatlari alohida o‘rganishga arziydi. Avvalo bu qo‘shimcha bilan yasalgan etnonimlardan namunalar keltiramiz: *kiyikchi, o‘tarchi, ayronchi, baliqchi, qarg‘achi, axtachi, oyuvchi, jilonchi, kelachi, toqchi, tulkichi, tuyachi, chang‘aroqchi, chibolanchi// chuvalanchi// chuvalachi, qunchi// qutchi// qushchi, o‘trachi, chovchi, etikchi, egarchi, qovunchi, o‘qchi, po‘latchi* va b.

Hozirgi o‘zbek tilida *-chi* qo‘shimchasi faol so‘z yasovchi sifatida, asosan, otlar yasaydi. Bu jixati bilan adabiy til va etnonimika satxida bir umumiylik va

mushtaraklikka ega. Lekin bu mulohaza etnonimlarning hozirgi holatiga nisbatan aytilganda to'g'ri keladi. Etnonimlarning o'tmishda yaralishdavridagi holatiga nisbatan aytilganda esa bu holat to'g'ri kelmasligi tabiiy. Chunki -chi qo'shimchasi hozirgi o'zbek tilida shaxs otlari yasovchi qo'shimcha sanaladi va u kasb, hunar, mutaxassislik, mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi shaxs, biron ishni qiluvchi yoki bajaruvchi shaxs, biron ish-harakat, faoliyatda ishtirok etuvchi shaxs, biron oqim, maslaq shu kabilar tarafdori, shunga mansub shaxs, biron jamiyat yoki guruhga mansub shaxs, biron narsani qilish odati kuchli bo'gan yoki shunga moyilligi kuchli bo'lgan shaxs kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Etnonimlar tarkibidagi -chi qo'shimchasiga nisbatan yuqoridagi ma'nolarning barchasini yoki bir nechtasini taluqli deb aytish qiyin. Masalan, kiyikchi etnonimini kiyik boquvchi deb sharhlar, talqin qilish, ya'ni kiyik so'zi anglatgan ma'no bilan bog'liq deyish qiyin, albatta. Chunki etnonimlar tarkibida –chi qo'shimchasi hozirgi o'zbek tilidagidan ko'ra murakkabroq va boshqacharoq ma'no anglatadi.

G.I.Ramstedt fikricha -chi qo'shimchasining etnonim yasash jarayonidagi ma'nosi bilan -chi qo'shimchasining hozirgi ma'nolari o'rtasidagi muvozanatni, muvofiqlik yoki nomuvofiqlikni belgilash uchun har bir etnonimning atalishi va yasalishini tahlil qilish zarurati tug'uladi. Bundan tashqari, -chi qo'shimchasining qadimgi turkey tildagi, mo'g'il tilidagi va o'zbek tilining eng qadimiy o'tmishidagi ma'nolarni va vazifalarini aniqlashga va shularni qiyoslashga to'g'ri keladi. Bu vazifani bajarish faqat so'z yasash sohasining vazifasi emas, balki semasiologiya va nominatsiya (onomasiologiya) kabi til ilmi tarmoqlarining ham vazifasiga kiradi. Ma'lumki, -chi qo'shimchasi oltoy bobotiliga mansub so'z yasovchi. Uning kelib chiqishi ilmiy manbalarda turlicha talqin qilingan<sup>2</sup>.

G.I. Ramstedt –chi qo'shimchasini ehtimol xitoy, koreys tilidagi chya (ma'nosi –erkak, er kishi, odam, shaxs, kishi) so'ziga daxldor bo'lishi, o'sha so'zdan kelib chiqqan bo'lishi mumkinligini taxmin qilgan. G.I.Ramstedtning tilga olingan asariga so'z boshi yozgan prof. N.A.Baskakov bu fikrni ma'qullamagan va -chi qo'shimchasining paydobo'lishini -chil/-chl, -chan/-chen

qo‘shimchalarining kelib chiqishi bilan bog‘langan holda o‘rganish o‘rinli degan mulohazani bildirgan.

B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjyeyevlar bu qo‘shimchaning etimologiyasiga oid V.V. Radliv va O.Byotling fikrlari haqiqatga yaqinroq deb qaraydigan tilida 1.Akademik V.V.Radlov va O.Byotling -chi qo‘shimcha –sit/-sut qo‘shimchasidan kelib chiqqan deb qaragan va bu qo‘shimchaning yoqut tilida mavjudligini ko‘rsatgan, bu qo‘shimcha tarkibida -t qo‘shimchasi ko‘plikni bildirgan va ko‘plik qo‘shimchasi sanalgan. Bu qo‘shimcha turkiy tillarning o‘tmishida mo‘g‘ul tilida ko‘plik qo‘shimchasi hisoblangan.

-chi qo‘shimchasi barcha turkiy tillarda shaxs otlari yasyadi, B.A.Serebrennikov va N.Z.Gadjyeyevaning fikricha, -chi qo‘shimchasining shaxs, kasb-hunar otlari yasashi birlamchi fazilat emas. Bu qo‘shimcha qadimda biron narsaga moyyillikni, odatni bildiruvchi sifatlar yasagan. Davrlar o‘tishi bilan bu qo‘shimchaning vazifasi va ma‘nosi o‘zgargan, sifatlar yasashda ot yasash doirasiga ko‘chgan, siljigan va shu tufayli kasb-hunar otlari yasaydigan bo‘lgan. Professor E.V.Sevortiyani esa -chi qo‘shimchasining -li qo‘shimchasi bilan ma‘nodoshligini, ma‘nolari yaqinligini ko‘rsatgan.

Yuqorida qatd qilingan ikki holat, ya‘ni -chi qo‘shimchasining dastlab sifat yasalgani, songra ot yasashga moslashishi hamda uning -li qo‘shimchasi bilan ma‘nosi yaqinligiga asoslanib ayrim etnonimlarning yasalishini izohlash va tushuntirish mumkin. -chi qo‘shimchasining etnonimikadagi, umuman, turkiy tillar o‘tmishidagi qadimiy ma‘nolari asosida o‘zbek xalqi tarkibidagi *uychi*, *baliqchi*, *tuqchi* kabi qadimiy etnonimlar yasalgan. Shu narsani ham qayd qilish kerakki, etnonimlarning yasalishiga asos bo‘lgan leksemalarning lug‘aviy ma‘nosi va morfemalik chegarasi unutilish darajasiga kelib qolgan. Ba‘zi etnonimlarda esa tildagi boshqa biron so‘zga shaklan o‘xshashholatga kelib qolgan. Masalan, *uychi* etnonimining asosini turar joy, yashaydigan maskan ma‘nosidagi *uy* so‘ziga nisbat berish tilining hozirgi holatidan kelib chiqqan holda izohlashgan bo‘ladi. Bu esa ushbu etnonimning lisoniy kechmishini noto‘ri talqin qilishga olib keladi.

Ma'lumki, *tug'*//*tuk* so'zi o'zbek tili kechmishida xon huzuruda chalinadigan dovul va xon qo'shini oldida baland ko'tarilib yuriladigan bayroq, ramz tasviri tushirilgan muqaddas tug'ro ma'nosini bildirgan. Shu so'zdan tuqchi etnonimi yaralgan. Tuqchi etnonimi ba'zitarixiy yozma yodnomalartilida, jumladan, A.Navoiy, Z.Bobur asarlarida uchraydi. Hozir bu etnonim tojikcha shakilda o'zgargan va xalq o'rtasida etnonim sifatida mavjud. *Tuqchi*//*toqchi* etnonimining yaralishida kasb-hunar, harbiy unvon manosi asos bo'lganligini taxmin qilish mumkin.

*Uychi* etnonimi boshqacha ma'no xususiyatiga ega. *Ug*//*ut*//*uy* totemning nomi, ya'ni qadimda turkiylar muqaddas sanashga hayvon nomi. Bu etnonim yaralishida etnonimga asos bo'lgan so'z anglatgan ma'no va tushuncha zamiridagi mavjudodga moyillik, ixlos qo'yish kabi nolisoniy omillar mavjud.

*Baliqchi* etnonimidagi ma'no va nomlanish omiliham o'ziga hos. Baliqchi leksemasi shaharlik va qo'rg'on qo'riqchisi ma'nolariga ega bo'gan. Bu ikki ma'noning qay biri birlamchi – buni shu turdagi boshqa etnonimlarni qiyoslash orqali aniqlash lozim.

-chi qo'shimchasi bir qator etnonimlar atkibida uchraydi: *ayronchi*//*ayranchi*, *qarapchi*, *axtachi*, *tulkichi*, *chang'aroqchi*, *tuyachi*, *chibalonchi*//*chubalanchi*, *quchchi*//*qutchi*//*qushchi*// *o'tarchi*, *kiyikchi*, *o'rmonchi*, *chovchi*, *egarchi*, *qorunchi*, *o'qchi*, *po'latchi* va boshqa shu taxlit yasalishdagi etnonimlarning yasalish asoslarini aniqlab, ma'nosini belgilash, yasalmaning ma'nolarini tasnif qilish ancha qiyin. Bu yo'ldagi urinishlarimiz xato va yangiliklardan xoli emas. Bu etnonimlarning asosi deb belgilanadigan lug'aviy birliklarning qanday ma'nolarga egaligi noaniq ekanligi hozirgi etnonimlarni tasniflashda xatoliklarga yo'l qo'yishga olib keladi. Ana shu qiyinchiliklarni tan olgan holda -chi qo'shimchasi bilan yasalgan etnonimlarning quyidagi xususiyatlarini qayd etish mumkin.

1. Totem vazifasini bajargan mavjudotlarning nomiga qo'shilib biron mavjudotga topinuvchi, uni muqaddas deb biluvchi kishilar jamoasi ma'nosini anhlataadi. Bu holda nomda moyillik, e'tiqod, ixlosmandlik kabi ma'nolarni ko'zda

tutilganligini ta'kidlash joiz. Kiyikchi-kiyikni muqaddas deb bilgan kishilar; ayronchi// ayranchi-ayron//ayran bir mavjudot nomi qanday, mavjudot nomi ekanligi aniq emas. Har holda biyaga o'xshash hayvon, ot zotiga mansub hayvon deb taxmin qilinadi, ayg'ir so'zining o'zagi (vosh qismi) va ayron//ayran so'zlari o'rtasida birlik mavjud. Ayran hayvoniga sig'inuvchi, uni muqaddas deb biluvchi. Tulkichi, tuyachi, uychi, chovchi// chov so'zining lug'aviy ma'nosi burgut kabi qushlarning changali yoki shunday changalga ega bo'lgan qush, quchci// qutchi/// qushchi, davurchi urug' nomlari ana shunga mansub. Tuyachi etnonimini tuya yetaklovchi deb izohlash va shu ma'no asosida so'z yasalgan deb qarash so'zning etnonimiya sathidagi emas, balki adabiy til, umumxalq tili sathidagi umumiy ma'nosiga asoslanish demakdir. Etnonimikada esa bu qo'shimcha shu turli etnonimlar yasalishida qatnashar ekan, u maxsus ma'noga va vazifaga xoslangan bo'ladi.

2. Biron kasb, hunar, mashg'ulot yoki shunga o'xshash narsalarga moyillik va shug'ullanish kabi ma'nolarni anglatadi. *Chang'aroqchi* – urug' nomi, Chang'aroq – qora uyning uvuqlarini tutib turadigan aylana (doira) shakli cho'p. Shu cho'pni yo'nib, uvuq cho'plari kirib turadigan teshiklarni o'yib, o'rtalariga yana cho'p qo'yadigan moslamalar qiladigan hunar sohibi – chang'aroqchi. Yoki boshqa taxminni ham aytish mumkin. Lekin bu ikki ma'no ikki xil nomlash natijasi, ularning ma'nolari ham boshqa-boshqa.

Etukchi, egarchi etnonimlarida kasb, mashg'ulot ma'nosi aniqroq seziladi. Qarap/chi, kela/chi, o'rmon/chi kabi yasalish asoslarining ma'nosi xiralashgan, shu sababli ularning ma'nosini tiklash, aniqlash birmuncha qiyin. Xullas -chi affiksining etnonimiyadagi ma'no va funksional xususiyatlarini o'rganish uning qadimgi va eski o'zbek tilida o'ziga xos yasovchilik va ma'no xossalari ega bo'lganligini ko'rsatadi. -li affiksi bilan yasalgan etnonimlarning yasalish asoslari ma'nosi aniq bo'lsa, -chi affiksi bilan yasalishga asos bo'lgan leksemalarning ma'nosi qorong'ilashgan, ba'zilarining tovush shakli o'zgarib ketgan, ayrimlari esa umuman iste'moldan chiqqan, nutqdagi ayrim so'zlarga shakli o'xshab qolgan, aslida esa bu leksemalarga ma'no va genetik jihatdan dahli yo'q.

Shuni aytish kerakki, -chi qo‘shimchasi Surxondaryo o‘zbek shevalarida shahar va qishloq nomlariga qo‘shilib, kishilarning hududiy guruhlarini atamasi yasash xossasiga ega: boysunchi – boysunlik (Boysun qishlog‘iga mansub kishilar), neluchi – nelulik (Nelu qishloq nomi), sinachi – sinalik (Sina qishloq nomi), farg‘onachi – farg‘onalik. –chi affiksining bu xususiyati qadimiy turkiy (o‘zbek) etnonimlarida ham bo‘lishi mumkin. Ushbu qo‘shimcha o‘zbek tilidagi 70 dan ortiq etnonimning tarkibida keladi. Chunonchi: *voxtamg‘ali, qo‘shimchasi, qanjig‘ali, ayinni, tortuvli, achamayli, boymoqli, taroqli, chanchiqili, qozoyoqli, cho‘michli, qaychili, ishqili, qiyg‘ochli, jilontamg‘ali, bolg‘ali, bo‘gajili, o‘yivli, xandakli, oqto‘yli, oqto‘nni, qoratunni, qoraqo‘yli, bag‘anali, bodroqli, boltali, jabog‘li, jag‘anboyli, jilonni, kesakli, ko‘kto‘nni, po‘stinni, sanchiqili, tamg‘ali, tug‘ali, tuyoqli, uchuyli, uyali, chovli, moyli, boyli, chaparashli, qangli, qarsoqli, qiyonni-qiyonli, qiyonquloqli, qoraqayunli, qoratamg‘amg‘ali, cho‘qmorli va boshqalar.*

Ma’lum bo‘ladiki, bu qo‘shimcha aksariyat etnonimlar tarkibida -li shakliga ega. Shu bilan birga etnonimlar tarkibida -ni shaklida ham uchraydi. So‘z oxiridagi ln undoshi qo‘shimcha boshidagi l undoshini o‘ziga moslashtirgan: nl/nn, oyinli/oyinni, oqto‘nli/ oqto‘nni kabi.

-li qo‘shimchasi qadimiy yasovchilardan bo‘lib, sifat hosil qilishda qatnashgan. A.M.Sherbakning fikricha, -lyo ( -lu, -lo‘) eski o‘zbek tilida nisbiy otlarni hozil qilgan. Ushbu qo‘shimcha o‘zbek tili tarixida -li// -li, -lu// -lo‘ shakllarida uchraydi. N.A.Baskakov -li qo‘shimchasining paydo bo‘lishini -li// -lig‘// -lig‘// -liq‘// -lik shaklida tasavvur qilgani ma’lum . Ammo A.N.Kononov bu fikrga qo‘shilmaydi va -li tarixda mustaqil morfema bo‘lgan deb hisoblaydi. Ushbu qo‘shimchaning hozirgi o‘zbek tilidagi ma’no va vazifalari haqida ko‘pgina tillarda fikr yuritilgan, uni ayniqsa A.Hojiyev batafsil tahlil qilgan .

-li qo‘shimchasi o‘zbek etnonimlarida eng ko‘p qo‘llanadigan urug‘, qabila nomlari yasaydigan morfemadir. Shu narsani ta’kidlash joizki, hozirgi o‘zbek tilida -li qo‘shimchasi otlardan sifat yasaydi. Etnonimikada esa bu holat va ma’no etnonimning dastlabki yuzaga kelgan davriga xos. Etnonim yasalgan ilk davrda -li

qo‘shimchasi etnonimga asos bo‘lgan so‘zda ifodalangan narsa va xususiyatning (qo‘shimg‘a, ko‘zimg‘a, jag‘alboy kabi) mavjudligi, xosligini anglatadi. Hozirgi davrda esa -li qo‘shimchasi bilan yasalgan yoki tarkibida -li qo‘shimchasi bo‘lgan etnonimlar etnonimning nomi bo‘lib, mohiyatan ot turkumiga mansubdir. -li qo‘shimchasi qo‘shilgan va etnonimni hosil qilishda lug‘aviy asos bo‘lgan lisopniy material tuzilishi jihatdan bir xil emas. Chunki -li qo‘shimchasi quyidagi shaklga ega leksemalarga qo‘shila oladi.

1. Tub so‘zlarga qo‘shiladi: *bolta-li*,// *oyin+li*, *tuyoq+li*, *qiyon+li*, *qang+li*, *bolg‘a+li* va b.

2. yasama shakl negizlarga qo‘shiladi: *oyin+li*// *oyin+ni*. Bu etnonim bir qator turkiy xalqlarda oy+li tarzida uchraydi. Oytamg‘ali va oyinni etnonimlarining atalish, nomlanish asoslari bir xil omilga asoslangan, ya’ni tamg‘aning oyning to‘lmagan shakliga o‘xshashligi nazarda tutilgan: *sanchqi+li*// *chanichqi+li*, *chumich+li*, *o‘yiiv+li*, *chaqmoq+li*, *qiyg‘och+li* va b.

3. Ikki so‘zning birikuvidan yasalgan asosi: *voxtamg‘a+li*// *uvuqtamg‘a+li*, *qo‘shimg‘a+li*, *qanjig‘a+li*, *achaymay+li*, *qozoyoq+li*, *oytamg‘a+li*, *jilontamg‘a+li*, *oqqo‘y+li*, *oqtug‘+li*, *qoraqo‘y+li*, *shag‘alboy+li*, *uchuy+li*, *quyonquloq+li*, *qoraquyun+li* va boshqalar.

Ko‘rinadiki, etnik birlik (urug‘, qabila yoki ularning kichik bo‘limlari) nomlari uchun asos bo‘lgan lug‘aviy negizlar tarkibi bir xil emas. Yuqorida eslatilgan uch holatning ishtiroki bor, ammo bu ishtirok bir xil darajada emas. -li qo‘shimchasi yasaliş asosi ikki so‘zning lug‘aviy ma’nolari e’tiborga olinsa va qanday ma’nodagi so‘zlar tanlasnishi ko‘zdan kechirilsa, shu narsa ma’lum bo‘ladi, ularning etimologik asosi va lug‘aviy-mavzuviy guruhdagi mansubligi bir xil emas va ular turli tushuncha va tasavvurlarni anglatadi: tamg‘a>jilon (ilon), qoz (hozir g‘oz), qo‘y, quyun (quyin so‘zining qadimiy shakllaridan biri), boy (moy), may – boyqush, boyo‘g‘li so‘zlarining birinchi qismida shu so‘z bir o‘zakdan, uy (qadimiy turkiy tilda - qoramol, sigir), quyon va b.

-li qo‘shimchasining etnonimlarda so‘z yasash xususiyatlari haqida gapirganda, shularni ta’kidlash lozimki, bu qo‘shimcha bilan yasalgan

etnonimlarning yasashida turli xil holatlar inobatga olingan. Shularning ichida muhimlari quyidagilar:

- urug' va qabilaning bayrog'i (tug'i)da yoki boshqa ramzlaridagi tamg'asiga ishora qiladi;

- qo'shtamg'ali ikkita qo'sh chiziqli tamg'a shakli deb qabul qilishgan;

- oytammg'ali – hozirgi turk va o'zbek alqi bayrog'i va tug'idagi oy shakliga o'xshash ramz, belgi;

- ko'ztamg'ali – tirik mavjudotlar ko'ziga o'xshash yonma-yon joylashgan ikkita xalqacha shaliga o'xshash rams belgi;

- jilontamg'ali – ilon va uning harakati, tuzilishiga o'xshash egri chiziqli ramz;

Koqoyoqli – aslida g'ozoyoq tamg'ali tarzida bo'lgan, tamg'asining shakli g'oz oyog'i tuzilishida bo'lgan;

- quyonquloqli - tamg'asining shakli quyonning qulog'i tarzida bo'lgan;

- voxtamg'ali – qora uyning keragalarini chang'arog'iga birlashtirib turadigan bosh qismi egik cho'pning nomi uvuq – shu so'zning shevadagi ko'rinishi – vox// voxtamg'asi uvuq shaklida bo'lgan.

Moyli, achamayli jag'alboyli// jag'almoyli, qorsoqli kabi etnonimlar asosidagi leksema qushlar va hayvonlarning nomlaridir. Uchala etnonim tarkibida boy// moy so'zi bor. Bu so'z bir qush nomi. Shu so'z boyqush, boyo'g'li qushlari nomida saqlanib qolgan. Qarsoq – tulkiga o'zshash cho'l hayvonining nomi. Shu va unga o'xshash mavjudotlar (qushlar, hararotlar, hayvonlar, jonzodlar) qadimda ma'lum bir kishilar guruhining totemi sanalgan. Shu totem nomlari etnonimlarga asos bo'lgan, totem- mavjudotlarning shakli, rasmi, chizmasi ularning bayroq va tug'larida bo'lgan. Ana shu boshqa fazilatlariga tayanib etnonimlar yaratilgan.

-i qo'shimchasi. Qadimiy qo'shimcha bo'lib, fe'l negizlaridan ot yasashga xizmat qilgan. G.I.Ramstedt qar+-i//qarr+i, qo'shn+i, yaxsh+i so'zlarida –i qo'shimchasini ajratgan edi.

Ismlari yoki patronimlarning qisqargan shakllari yotgan bo'lishi mumkin. Masalan: boltash (Boltaboy ismi), begim (Bekmurod, Bagali ismi) kabi.



S.Otaniyozov –sh (-ish) bilan yasalgan etnonimlarga misol tarzida keltirgan mamash, parish, melesh, batash, bekesh, dudash, abish, o‘tamish nomlarining asosini antroponimlar tashkil qilish shubhasiz.

-v (-uv) qo‘shimchasi. Qadimiy, ammo unchalik sarmahsul bo‘lmagan ushbu qo‘shimcha fellardan ot yasashga xizmat qiladi. Bu otlarni A.M.Sherbak feldan yasalgan otlashgan so‘zlar deb atagan<sup>1</sup>.

-v(-uv) qo‘shimchasi funksiyalari va manolarini A.G‘.G‘ulomov ham keng tahlil qilgan<sup>2</sup>. A.Hojiyevning kuzatishicha, ushbu qo‘shimchanning so‘z yasash xususiyati hozirgi davrda ancha faollashgan<sup>1</sup>.

-v (-uv) qo‘shimchasi etnonimlar hosil qilishda ham faol emas. Bizning materiallarimizda ushbu qo‘shimcha bilan hosil qilgan javlo+v, tilo+v, uchur+uv, qart+uv, etnonimlari uchraydi.

-cha qo‘shimchasi. Ba’zi turkologlar –cha qo‘shimchasi mustaqil negiz chaq//chag dan yuzaga kelgan deb hisoblashadi<sup>2</sup>. –cha ba’zi turkiy tillarda –ja//je variantlariga ega: akja, karaja, gekje kabi. Qirg‘iz etnonimlariorasida akcha, karacha, kakcha nomlari uchraydi.

S.Otaniyozov bu qo‘shimchanning Turkman etnonimlaritizimida unchalik faol emasligini qayd qilgan va alacha (alaja, alasha), depche, (devche), mincha//munche (ming etnonimidan), merche (merke) nomlarini keltirgan. Ushbu muallif –cha (- ja//je) qo‘shimchalari katta urug‘ qabilalarning mayda bo‘lak (tarmoq)lari nomini yasashini ta’kidlaydi: “ja/je qo‘shimchasi yordamida yasalgan etnonimlar chog‘ishtirish, solishtirish ma’nolarini ifdalaydi hamda, asosan, etnonimning mayda, kichik shahobchalarini anglatuvchi tillariga qo‘shiladi”. Ushbu muallif –cha bilan yasalgan aqja, gokja, garaja, gizilja, sakarija, alaja, kabaja, kegja, marja, meleje, cekje, surja, suyruja, chikja, алынja etnonimlarini keltirgan,

-cha qo‘shimchasi ko‘p holda sifat turkumidan yangi nomlar yasaydi: qora+cha, qizil+cha, qarap+cha kabi. O‘zbek etnonimlari orasida yana g‘ilpoycha, kulcha etnonimlari uchraydi. -ik (-liq, luq)qo‘shimchasi. O‘zbek tilining so‘z

yasash tizimida ancha serahsul bo'lgan va ot, sifat va ravishlardan ot hosil qiluvchi ushbu qo'shimcha haqida anchagina fikrlar aytilgan.

K.Sharipova qo'shimchaga oid nomzodlik dissertatsiyasini yozgan, shuningdek ba'zi qiziqarli maqolalar ham mavjud .

-lik qo'shimchasi eski o'zbek tilida so'zlarga -liq// -лыг' // -luq/ -lug'// luk// lug variantlarida qo'shilgan. Qarluq etnonimining hozirgi o'zbek tilida qorluq// qarluq// qorliq // qarluq// qarlug' shakllarida uchrashi o'tmish davrlar merosidir. S.Otaniyozov umuman faol bo'lgan -lik// -liq qo'shimchasi etnonimiya tizimida unchalik sermahsul emasligini qayd qilgan va xojeлыq, sarыjalыq, ovsharлыq, garajalyq, atalyq etnonimlarini keltirgan .

Biz o'rgangan hududda tog'liuq (urug'), cho'l+lik (urug', qish+liq (urug'), qor+luq, qul+uq (qorluqning shevaviy shakli) etnonimlari uchraydi.

-lar qo'shimchasi. Turkiy tillardagi qadimiy qo'shimcha bo'lib, ko'plik va miqdoriy ortiqlik ma'nolarini ifoda qilgan. Ba'zi ishlarda ular anglatuvchi ko'plik noaniq ekani, ba'zin bu morfema hurmat va, aksincha, kesatiq, mubolag'a ma'nolarini ifodalanishi anglatadi .

Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashig o'zgarib ba'zi ishlarda --ar so'z yasovchi qo'shimcha sifatida tilga olinmaydi. E. bematovning fikricha, "Bu qo'shimcha hozirgi o'zbek tilida ko'plik ma'nolarini anglatishi bilan birga so'zlarni ilmiy termin sifatida shakllantirishga ham xizmat qilad: sonlar, ko'paytiruvchilar, terbanishlar, kemiruvchilar .." .

-lar qo'shimchasi turkiy tillarda nar, -dar, -dor,-tar, -ar// er shakllarida uchraydi. Ushbu qo'shimchani etimologiyasi haqida V. Bng, keyinchalik V.V.Radlov, D.Sinor, P.Poppe va A.N.Kononovlar fikr yuritgan bo'lib, bu morfema qadimiy turkiy tilda ko'plik ma'nosini ifoda qilgan. -l, va -r qo'shimchalarining kombinatsiyasidan iborat deb hisoblanadi. Bu masalaga oid mulahazalarni A.N.Kononov va A.M.Sherba keng tahlil qilgan .

-lar qo'shimchasi etnonimlar tarkibida kelishi juda faoldir. D S. Otaniyozov "Slovar' turkmenskix etnonimov" kitobidagi 2300 etnonimdan 165 tasi tarkibida -lar uchrashini yozgan .

Bizning kuzatishlarimiz o'zbek tilidagi 50 dan ortiq etnonim tarkibida –lar qo'shimchasi kelishini ko'rsatdi.

-lar qo'shimchasining leksemani etnonim sifatida shakllantirishi ayniqsa, beg+lar, boy+lar, o'z+lar, shux+lar, qut+lar kabi nomlar tarkibida aniq ko'rinadi. Boshqa bor qator etnonimlar tarkibida lar o'zi qo'shilgan so'z anglatgan tushunchaga ko'plik, miqdoran ortiqlik, aniqroq jamoaviylik ma'nosini baxsh etadi: bahrinlar, katanlar, kushonlar, ermuchinlaar, ko'niklar, jaloyirlar, mang'itlar, saljuqlar, sartlar, to'laslar, o'zbeklar (qabila), shanqutlar, qanglilar va b. keltirilgan etnonimlar ma'nosini, masalan, bahrinlar – bahrin urg'iga manub bo'lganlar, jaloyirlar –jaloyir qabilasiga mansub bo'lganlar tarzida tushunish mumkin. B yerda bitta nozik masalaga ham to'xtalishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, rus tilida qabila, millat va xalq nomlari ko'plik shaklida ishlatilad: uzbeki, tatari, kirgızy kabi. Yuqorida tarkibida lar qo'shimchasi mavjud etnonim shakllari bu nomlarning ruscha shaklini ozbekchalashtirish (kalkalash) ta'sirida paydo bo'lgan bo'lishi ehtimol.chuki turiy etnonimlarni dastablabki to'plovchilari va yozma manbalarda qayd etilishi rus olimlari tomonidan amalga oshirilgan.

Yuqorida etnonimlarni hosil qilishda ishtirok etuvchi hozirgi o'zbek tilida ham funksional bo'lgan qo'shimchalarni tahlil qildik.

Quyida, asosan, o'tmishda funksional bo'lgan, hozirgi o'zbek tili so'z yasaliş sistemasi uchun arxiak hisoblanuvchi, ammo etnonimlar tarkibida keluvchi ba'zi qo'shimchalarga to'xtalamiz. Ushbu qo'shimchalar vazifaviy jihatidan, ma'nosi jihatidan, genetic-etmologik xususiyatiga ko'ra murakkab bo'lib, bu ushbu qo'shinchalarning o'tmish davrlar so'z yasaliş xususiyatlaridan meros ekanligi bilan izohlanadi. Bu tip so'z yasovchi morfemalarni har tomonlama tadqiq qilish turkey tillar tarixi aspektida bajarilishi lozim bo'lgan vazifadir. Biz ushbu masalaga bu o'rinda imkoniyat darajasida to'xtalamiz.

-y (-ay) qo'shichasi. Ushbu qo'shimcha hozirgi o'zbek tili so'z yasaliş jarayonida qatnashmaydi. Shu sababli so'z yasaliş masalasiga bag'ishlagan maxsus ishlarda bu qo'shimcha nazardan tushib qoldirilgan.

Ushbu qo‘shimchaning sifatlardan, qisman otlardan fe‘l yasashiga A. G‘ulomov va A. N. Kononov to‘xtalgan . Bu qo‘shimcha ba‘zan sifatdan ot (ko‘k+ay), sifatdan-sifat (o‘ng+ay) yasaydi.

-y, (ay) qo‘shimchasining tarixiy morfema ekani va uning hozirgi davr tili uchun murakkab tomonlarga egaligi haqida E. Begmatov quyidagilarni yozgan: “O‘zbek tilida –ay qo‘shimchasiga funksiyadosh bo‘lgan -vay//-ay//jay kabi formalar ham uchraydi. Ammo bu leksemalar qadimiy jarayonlar bo‘lgani uchu ularning morfologik strukturasi aniq belgilash ancha mushul. Chunonchi, dumbay(moq), tarvay(moq), iljay(moq), so‘ljay(moq), junjay(moq), irshay(moq), tirjay(moq) kabi.

Bir qator so‘zlar tarkibida uchraydigan –may, -pay, -ray kabi elementlarning –ay qo‘shimchasiga aloqadorligi ham aniqlik talab qiladi: bumay(moq), g‘umay(moq)...” .

Kletirilgan mulohaza etnonimlar tarkibida uchraydigan –y (-ay, -oy) qo‘shimchasi uchun ham tegishlidir. Etnonimni yasash uchun xizmet qilgan lug‘aviy negizlar hozirgi o‘zbek tili uchun arxiak, hatto o‘lik leksemalardir: ald+ay// alda+y, bad+ay//bod+ay ber+ay, buqala+y, bud+ay, laq+ay, jad+ay, tog‘+ay, no‘g‘+ay// no‘g‘a+y, dub+ay, tum+ay, to‘g‘+ay, uvala+y, uz+ay, chuvala+y, chitam+oy, chag‘ala+y, sar+oy, qit+oy, qoch+ay kabi.

Ol (-il, -ul, -vul) qo‘shimchasi. Ushbu qadimiy qo‘shimchaning ma‘no va etimologiyasi haqida G.I.Ramstedt quyidagilarni yozgan edi: “... qadimiy turkey –li qo‘shimchasi tungus tilida ko‘plik a‘nosini ifodalaydi va u ko‘plik anglatuvchi boshqa bir shakl –d ning fonetik variant bo‘lishi mumkin. Chunki d va l ning o‘zaro almashinishi mavjud holatdir. Ammo ko‘plik qo‘shimchasi (-l)ning tarixiy rivoji ancha murakkabdir” .

B.A.Serebrennikov va N.Z.Gajiyevalar fikricha, -l qo‘shimchasining ko‘plik ma‘nosini anglatishi u alohida qo‘llanganda unchalik sezilmaydi va boshqa qo‘shimchalar, ayniqsa tarkibida aniqroq namoyon bo‘ladi: -lar esa “jamlikniahglatuvchi ikkita qadimiy turkey –l va –(a)r asosida yasalgan. –l shakli

ko‘plikni jamligni anglatuvchi -lik//-lik ham mavjud” . A.N.Kononov –I qo‘shimchasining yuzaga kelishi hali yetarli aniqlangan emasligini ta’kidlagan edi.

O‘zbek etnonimlarining qo‘shimchalar qo‘shish bilan yasalishi haqida quyidagi xulosalarni qayd etish mumkin:

1. Etnonimlarning yasalishi tildagi boshqa tur so‘zlardan ancha farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, yasalish asosi vayasovchi qo‘shimchalar orasida chekchegaraning yo‘qolib ketganidako‘zga tashlanadi.

2. Etnonimning tarkibidagi yasovchi qo‘shimchalarning aksariyat qismini umumturkiy yasovchi qo‘shimchalardir. Shuning uchun etnonimlarning yasalishini faqat o‘zbek tili bazasida emas, turkiy tillar yasalish tizimi bazasida ko‘rib chiqishni, taqqoslashni taqozo qiladi.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

1. Etnonimlarga xos muhim xususiyatlardan biri ularning boshqa tip atoqli otlarni hosil qilishda negizlik rolini o'ynashidir. Masalan, o'zbek tilidagi anchaghina toponim va antroponimlar etnonimlarga nisbat berish orqali hosil qilingan. Bunday nomlar nomshunoslikda etnonimlar va etnoantroponimlar deb yuritiladi. Etnonimlarning ushbu xususiyati ham bu tip nomlarning turdosh so'zlarga yaqin turishidan darak beradi.
2. O'zbek tilidagi etnonimlarning lisoniy tuzilishini kuzatish ularni Grammatik shakliga ko'ra ikki guruhga bo'linishi ko'rsatdi: sodd etnonimlar, qo'shma etnonimlar va ajralmas tuzilmalar. Aralash tuzilmalar ham sodd va qo'sham tnonimlarning qo'shilmasidan iborat bo'ladi. Masalan: qo'shtamg'ali kabi nomlarda ikki sodd leksemaning (qo'sh va tamg'a) va -li qo'shmasining ishtiroki mavjud bo'lib, etnonim shu holatida qo'shma emas, sodd (yasama) etnonim deb tushuniladi.
3. Etnonimlarning yuzaga kelishida yangi nomlar hosil qilish asosiy o'rin tutgan. Etnonimlar asosan uch usulda hosil qilingan: 1) lug'aviy-ma'noviy konversiya usuli; 2) morfologik yoki qo'shimchalar qo'shish usuli; 3) sintaktik usul.
4. Etnonimlarning yasalishi tildagi boshqa tur so'zlardan ancha farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, yasali sh asosi vayasovchi qo'shimchalar orasida chek-chegaraning yo'qolib ketganidako'zga tashlanadi.
5. Etnonimning tarkibidagi yasovchi qo'shimchalarning aksariyat qisiumumturkiy yasovchi qo'shimchalardir. Shuning uchun etnonimlarning yasali shini faqat o'zbek tili bazasida emas, turkiy tillar yasali sh tizimi bazasida ko'rib chiqishni, taqqoslashni taqozo qiladi.

### III BOB. ETNONIMLAR ASOSIDA HOSIL BO‘LGAN ETNOTOPONIMLAR

#### 3.1. Tilshunoslikda etnotoponim tushunchasi

Barcha etnik birlikning nomi etnonim (yunoncha, etnos – “xalq”, onim – “nom”) deb atalishi haqida tadqiqotimizning dastlabki o‘rinlarida ma’lumotlar berib o‘tgan edik. Juda ko‘p joy nomlari etnonimlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Qadimdan shakllangan urug‘, qabila, ittifoq, etnik tarkib nomlari hozirgacha hududlar kesimida saqlanibqolgan bo‘lishi va yoki o‘zgarib bizgacha yetib kelgan bo‘lishi mumkin. Etnonimlardan nom olgan har qanday geografik obyekt etnotoponim deyiladi. Etnotoponimlarning ma’lum bir qismi oykonimlar, ular har qanday mintaqa aholisining tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti, xalqlarning qadimiy munosabati, integratsiyasi va migratsiyasini ko‘rsatuvchi muhim manba hisoblanadi. Aholi sivilizatsiyasi shakllangan - suv bo‘ylari, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay joylarda, yirik aholi punktlarida, turli etnik guruh vakillari aralash yoki yonma-yon yashagan joylarda etnotoponimlar zichroq tarqalgan. Ba’zan, yo‘qolib ketgan xalqlar va tillarni tarqalish hududlarini aniqlashda etnotoponimik ma’lumotlarning o‘rni katta.

Bir qator toponimlar bizning o‘tmish ajdodlarimiz – turkiy qabila va urug‘larning, shuningdek boshqa xalqlar, elatlarning hozirgi O‘zbekiston hududida qaysi o‘rinlarda yashaganliklari, qaysi hududlar bo‘ylab ko‘chib yurganliklarini aniq ko‘rsatib bera oladi. *Ayronchi, Do‘rmon, Jaloyir, Mo‘nka, Baymoqli, Qaychili, Nayman, Bahrin, Qipchoq, Qarluq, Qorabura, Qo‘ng‘irot, Arslonboyli, Achamoyli* kabi qishloq va ovullarning nomlari o‘sha joyda o‘tmishda nomi tilga olingan qabila va urug‘lar istiqomat qilganligini yoki hozirda ularning avlodlari yashab turganligidan dalolat beradi. Bunday urug‘ va qabila nomlari tilshunoslikda etnonimlar va shu nomdagi joy nomlari etnotoponimlar deb yuritiladi.

Qadimiy xaritalarga e’tibor berib qaralsa, asosiy toponimik yukni qabila va xalqlar nomlari, ya’ni etnonimlar tashkil etadi. Buning boisi shuki, kishilik

jamiyatining dastlabki bosqichlaridan buyon aholining etnik tarkibi hududni belgilash uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Shahar va qishloqlar nomini tashkil etgan etnotoponimlarga qarab qadimda ushbu hududda qanday etnik guruhlar istiqomat qilganligini bemalol bashorat qilish mumkin.

Etnotoponimlarni hayotimizning ko'pgina jabhalarida uchratishimiz mumkin. Masalan, O'zbekistonning ba'zi viloyatlari tumanlarida qishloqlar nomlarining 1/3 qismi etnonimlardan iborat. Har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman joy nomlaridan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi.

Til tuzilishida etnonimlarning ham muhim o'rni bor. Urug' va qabilalar ko'pgina xalqlar uchun allaqachon tugab ketgan. O'zbekiston etnotoponimiyasi to'g'risida esa bunday deb bo'lmaydi. Chunki bu yerda urug'chilik qoldiqlari yaqin vaqtgacha ham mavjud bo'lgan va har bir urug' yoki uning tarmoqlari yashagan qishloq o'sha urug' yoki shoxning nomi bilan atalgan.

Qabila sinfsiz jamiyatdagi etnik birlik va ijtimoiy tashkilot tipidir. Qabila a'zolari bir-birlari bilan qon-qardosh bo'lgan hamda urug' va boshqa mayda guruhlariga bo'lingan. Qabila a'zolari muayyan birlikka ega umumiy hududda yashashgan, iqtisodiy birlikka ega bo'lishgan. Ya'ni jamoa bo'lib ov qilishgan, birbirlariga yordamlashishgan, yagona til (sheva) da gaplashishgan. Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida qabilalar birlashib elat hosil qiladi.

Qabilachilik qoldiqlari sinfly jamiyatda ham saqlanib qolishi va quldorlik, feodal va kapitalistik munosabatlar bilan qo'shilib ketishi mumkin. Shunday qilib, elat kishilarning til jihatdan hududiy, iqtisodiy va madaniy birligi bo'lib, millatdan oldingi sanaladi. Elatlar qabilalar ittifoqi vujudga kelgan davrda tarkib topa boshlagan, Bunda qabilalar bir-birlari bilan asta-sekin aralashib, qon-qardoshlik aloqalari o'rnini hududiy aloqalar egallay boshlagan.

Elatlar odatda kelib chiqishi va tili bir bo'lgan bir necha qabilalardan yoki ularning birini ikkinchisi bosib olishi natijasida aralashib ketgan va tillari turlicha bo'lgan qabilalardan tarkib topgan. Elatning tarkib topishi jarayonida, uning ayrim guruhleri o'rtasida aloqalar kuchaygan sari eng ko'p sonli va eng taraqqiy etgan etnik komponentning tili elatning umumiy tili bo'lib qoladi; boshqa qabilalarning



tillari esa shevalarga aylanadi yoki ba'zan umuman yo'qolib ketadi. Shu tariqa kishilarning umumiy nom bilan ataladigan hududiy, madaniy va iqtisodiy birligi vujudga keladi.

Kapitalistik munosabatlarning taraqqiy etishi va iqtisodiy hamda madaniy aloqalarning kuchayishi bilan elatlar millatlarga aylanadi. Millat – kishilarning barqaror tarixiy birligi. U umumiy iqtisodiy turmush hamda til, hududiy birligi, madaniyat, ong va psixologiyaning o'ziga xosligi zaminida qaror topgan ijtimoiy taraqqiyot shaklitir.

Millat qon-qardosh va qardosh bo'lmagan qabila, irq va xalqlardan shakllanadi. Millatlarning iqtisodiy va siyosiy birlashishi elatlarning yozma adabiy tili va xalq og'zaki tilining yaqinlashishi negizida yagona milliy tilning paydo bo'lishiga olib keladi. Shevalar o'rnini asta-sekin milliy til egallaydi. O'zbek elati urug' va qabilalardan ilk o'rta asrlarda shakllana boshlangan. Oktyabr to'ntarishidan oldingi o'zbeklar tarkibiga kirgan *barlos, nayman, saroy, qo'ng'irotd kabi urug'-qabilalar o'z navba-tida, bir qancha to'p, tira, shox, avlod, qavm* kabi tarmoqlarga bo'linadi. Ana shu har bir bo'limning o'z nomi bor. To'p, to'par, shox, tira, jamoa, toifa, avlod, qavm, urug', qabila, elat, xalq, millat nomlari *etnonimlar* deyiladi.

Odatda xalqlar, millatlar, shuningdek qabilalar, yirik urug'larning nomlari qadimiy bo'ladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq kabi millat nomlari, qo'ng'irotd, mitan, qangli, qipchoq, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug'-qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari ilmiy asosda uzil-kesil hal qilingan emas. O'zbek – “o'ziga bek”, qirg'iz – “qirq qiz”, qozoq – “qo-choq”, mitan – “mo'ytan” (serjun), qangli – “qanqli” (aravali), qorluq – “qorliq” (qorda qolgan), xalaj – “qol och” (och qolgan), qalmoq – “chetda qolgan” (islom diniga kirmay qolgan) degan ma'noni bildiradi deyish g'ayri-ilmiy, asossiz izohdir.

Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo'lib, ma'lumot tashiydi. Etnonimlarni o'rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Kishilar bir necha ming

yillar davomida ayrim-ayrim holda urug‘ bo‘lib, keyinchalik esa hududiy-dialektal umumiylik hosil qilib, qabila-qabila bo‘lib yashaganlar.

“Odam”, “inson”, “o‘zimizning kishilar kabi ma’nomlarni anglatgan *ar* (er), *man* (men) kabi etnonimlar ana shu qadim davrlarda paydo bo‘lgan. Bir qancha etnonimlar chindan ham odam”, “rostakam inson” degan ma’nomlarni bildiradi. Masalan, udmurtlar (janubiy udmurtlar) tarixiy manbalarda *ar* «odam» shaklida tilga olingan. *Tatar, hazar, arlat, ag‘ar, majar, mishar, avar, bulg‘or* kabi xalq va qabila nomlari tarkibidagi *-ar (-er), -ir* qo‘shimchasi eroniy tillardan birida “odam” degan ma’noni bildirgan va keyinchalik turkiy tillarga o‘tgan. *Ariy* (oriylar), *iron* (osetintlarning bir qabilasi) va hatto *eron* so‘zlari ham o‘sha *ar* (ir) “odam” so‘zidan tarkib topgan bo‘lsa ajab emas. Turkman, qaraman, aqman, sarman, quman kabi etnonimlar tarkibidagi *man* qo‘shimchasini olimlar ayrim hind-yevropa tillaridagi *man–men* “odam” so‘zidan kelib chiqqan, deydi. Shu bilan birga bir qator ko‘pgina etnonimlarning kelib chiqishi, etimologiyasi hamon ma’lum emas.

### **3.2. Etnotoponimlar tarkibidagi etnonimlar semantikasi**

O‘zbek urug‘lari nomlari (etnonimlar) ning o‘ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ham eng qadimiy sanaladi. Ular majusiylar davrida paydo bo‘lgan.

Urug‘larning muqaddas hayvonlari (totem) bo‘lib, kishilar o‘zlarini shu hayvondan tarqalgan, deb hisoblaganlar. Masalan, *jifondi* (ilonli), *jilontamg‘ali* (ilontamg‘ali), *qulon, oqbura, qorabura*, (bura, buvra, bu‘ra – bichilmagan erkak tuya), *qarg‘a, shag‘al* (shaqal – chiyabo‘ri), *echki, ho‘kiz* etnonimlari shular jamlasidandir.

Hayvon nomlari bilan atalgan etnonimlar ba‘zan shu urug‘ ajdodining laqabi ham bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina etnonimlar urug‘-aymoq tamg‘asi nomi bilan atalgan. Ya’ni har bir urug‘ning o‘z tamg‘asi bo‘lgan. Masalan, mollarini, otlarini boshqalarnikidan farq qilish uchun tamg‘alab qo‘yishgan. *Bolg‘ali, kosovli, qaychiti, taroqli, cho‘michli, qirg‘ili* kabi

urugʻlarning tamgʻalari shaklan ana shu uy-roʻzgʻor asboblariga oʻxshash boʻlgan.

Etnonimlar orasida kishi ismlari ham uchraydi: *amir – temir, boʻronboy, jalmat, ollaberdi, fozil, chigʻatoy*; joy nomlaridan kelib chiqqan etnonimlar ham bor: *beshqoʻton, buloqboshi, soylik, urganji, qayirma, qorabuloq, sharqiyalik* (Shohruhiyalik – Shohruhiya – Ulugʻbekning otasi Shohruh nomi bilan atalgan shahar nomidan) va boshqalar. Oʻzbek etnonimlarini semantik *jihatdan* bir necha guruhga boʻlish mumkin. Chunonchi, biron kasb-hunar nomi bilan yuritiladigan etnonimlar: *qirsadoq* (sadoq – oʻqdon), *iyarchi* (egarchi – egarsoz), *gilambofli* - (gilam toʻquvchi), *sayot* – (sayyod - ovcibi), *tulkicili, zargarlik, mirishkor, poʻlatchi* va boshqalar.

Kattami-kichikmi, har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman toponimiyasidan farq qiladigan oʻziga xos xususiyatlari boʻladi. Oʻzbekistonda etnotoponimlar juda katta oʻrin tutadi. V.A.Nikonov oʻzi taʼriflab bergan *nisbiy negativlik* qonuniga amal qilib, *etnotoponimlar* biron millat yoki xalq yaxlit yashaydigan hududning biron qismida emas, balki bu hududning chekka qismida, yaʼni ikki xalq aralash yashaydigan chegaradosh zonadagina boʻladi deb yozadi. Manbalarda 92 oʻzbek urugʻi bor deb qayd etilgan. Bundan tashqari, har bir urugʻ oʻz navbatida yanada mayda guruhlarga boʻlinib ketadi. Etnograf K.Shoniyoovning taʼkidlashicha, birgina *qoʻngʻirot* urugʻi 200 dan ortiq kichik shox – toʻplarga ajralib ketadi. Shunday qilib, oʻzbek millati turli qabila va urugʻlardan tarkib topgan. Bu qabilalardan *turklar* qabilasi Xonaqodaryo havzasida, Kofirnihonning yuqori oqimida, Qizilsuv, Yaxsuv daryolarining vodiylarida hamda ularning irmoqlari boʻylarida, Qoradaryo vodiysida, Surxondaryoning yuqori va oʻrta oqimlarida, Buxoro yaqinida esa Shahrud kanali boʻyida, Samarqand atrofidagi togʻlarning etaklari hamda yonbagʻirlarida yashagan. Turklarning ancha qismi Andijon viloyatining Xoʻjaobod va Marhamat tumanlari, Oʻsh viloyatidagi Aravon rayonida, Oʻratepa atroflarida, Qashqadaryo vodiysidagi Oʻradaryo boʻylarida, Sherobodaryo atroflaridagi togʻlarda yashab kelganlar.

Movarounnahr turklarining talay qismini *qarluqlar* tashkil etgan. Ular Surxondaryo bo'ylarida, Qoratog'daryoning bo'ylarida, Kofirnihon, Vaxsh vodiylarida, Yovonsuv boshlarida, Vaxsh bilan Qizilsuv oralig'ida, Ko'lob vodiysi hamda Panj daryosining o'ng sohilida, Qashqadaryoning quyi oqimida, Zarafshonning quyi oqimida (Shahrud kanali bo'ylarida) yashashgan. *Barlos* Qoratog'daryo vodiysida, Surxondaryo vodiysining ayrim joylarida, Qashqadaryoning bosh tomonlarida, Shaxrisabz atroflarida istiqomat qilib kelganlar. Bundan tashqari, barloslar Zarafshon vodiysidagi sobiq Samarqand uyezdining Qoratepa, Mog'iyon, Forohs Panjakent voloslari, Nurota va Molguzar tog'larida, Turkiston tog'ari etaklarida yashardilar.

*Kaltatoylar* Surxondaryoning yuqori va o'rta oqimlarida, Nurota va Molguzar tog'lari yonbag'irlarida, Turkiston tog'lari etaklarida, Qashqadaryo vodiysidagi Kitob shahri atroflarida istiqomat qilganlar. *Musobozorlar* Hisor vodiysida, Hisor tog'larining shimoliy yonbag'irlarida (Xonaqodaryo va Qoratog'daryo havzalarida), Qashqadaryoning bosh tomonidagi Forob, Denov, Sumsar qishloqlari atroflarida, ulardan pastroqda – Miraki qishlog'i yaqinida ham yashashgan.

*Mo'g'ullar* kamroq bo'lib, Panj daryosining o'ng sohilidagi Chubak qishlog'i atroflarida, Jilg'asoy vodiysida o'rnashib qolganlar. Hisor vodiysida, Janubiy Turkistonning ba'zi bir joylarida ham mo'g'ul qishloqlari unda-bunda uchraydi. Mo'g'ullarning ko'pchilik qismi Shimoliy Afg'onistonda ham mavjud. *Qo'ng'irotlar* Amudaryo bo'ylarida, Qashqadaryo, Surxondaryo vodiylarida yashab kelganlar. Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Buxoro, Qorako'l vohalarida ham yakkalanib qolgan qo'ng'irotlar urug'i gurahlari bor.

*Mang'itlar*, asosan, Zarafshon vodiysida, qisman esa Xiva xonligida, so'ngra Qarshi vohasida, shuningdek Amudaryoning chap sohilida – Chorjo'y yaqinlarida yashab kelgan. Mang'it bir qancha yirik va mayda urug'larga bo'lingan. Eng yirik urug'lar: *oq mang'it, qora mang'it, och mang'it, chala mang'it, boyg'o'ndi mang'it*. Bulardan tashqari, yana *temirxo'ji, isoboy, gavlak,*

*ko'sa, toz, qorabayir, baqirchi, kula, tamg'ali mang'it, qozoq, o'n ikki, cho'qay, gala-botir, beshkal, chobakchak, uz, uvolay* kabi urug'lar ham bo'lgan.

*Naymanlar*, asosan, Zarafshon vodiysida, Jizzax, Kattaqo'rg'on, Samarqand atroflarida, shuningdek, Buxoro va Karmana vohalarida o'rnashib qolganlar. Xiva vohasi va Farg'ona vodiysida ham bir oz miqdorda naymanlar bo'lgan. XIX asr oxirlarida naymanlar 3 ta yirik urug'dan iborat bo'lgan. Bular – qo'shtamg'ali, sadirbek va uvox-tamg'ali. Ulardan tashqari nayman qabilasi *ag'ran, ayronchi, badir, biya, bog'onali, boltali, bo'qalay, burunsov, jag'albayli, jastavon, jilonli (ilonli), jumaloq-bosh, oltio'g'il, oqto'nli, po'lotchi, segizuruv, sarinayman, to'rttuul (to'rto'g'il), to'rttamg'ali, urguch, ukrash, changali, cho'michli, g'ozoyoqli, qoranayman, qoragadoy, qorasirak, qarg'ali, qiltamg'ali, qoitamg'ali* kabi tarmoqlarga ham bo'lingan.

*Saroy* qabilasi Buxoro, Karmana, G'ijduvon, Kattaqo'rg'on, Samarqand va Jizzax atroflarida, Qarshi, Shahrlsabz vohalarida, qisman Farg'ona vodiysida yashagan. Saroylar tarkibida bir qancha katla-kichik qabilalar bo'lgan: azsaroy, qi pchoqsaroy, qirg'izsaroy, qo'ng'irotsaroy, majarsaroy, qorabog'saroy, naymansaroy va boshqalar. Bularning har bin o'z navbatida yana bir qancha urug'larga bo'lingan.

*Kenagaslar*, asosan, Shahrisabz, Buxoro, Karmana, Denov vohalarida, *laqaylar* Kofirnihon, Vaxsh, Qizilsuv havzlarida zich yashaganlar. Kenagaslar *ochamayli, kirey, abak kirey, ovoqli, taroqli, chuyut, qayri soli* kabi kichik qabila va urug'larga; *laqaylar* esa *esonxo'ja, bodroqli, bayram, to'rtovul* kabi urug'larga (bo'laklarga) bo'lingan.

*Qatag'anlar* birmuncha keng maydonda – Farg'ona vodiysining Namangan bilan Qo'qon shaharlari orasidagi tumanlarida o'rashib qolganlar. Qatag'anlarning asosiy qismi Ko'hitang tog'larining sharqiy yonbag'irlarida, Sheroboddaryo havzasida, Surxondaryoning o'ng sohilida, Vaxsh daryosi etaklarida, Panjning o'ng sohilida va Yaxsuv vodiysidag'uj yashagan. Qashqadaryo havzasida, Zarafshon etaklarida, Buxoro hamda Karmana yaqinlarida ham qatag'anlar bo'lgan. Shimoliy Afg'onistonda ham talay qatag'anlar yashaydi.

*Qipchoqlar* Samarqand bilan Kattaqo'rg'on o'rtasidagi tumanlarda, Amudaryoning o'ng sohilida, Farg'ona vodiysining shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy qismlarida o'troqlashib qolganlar.

*Quramalar* Ohangaron havzasida, Andijon bilan Namangan orasida turib qolganlar. Yirik o'zbek urug'larining geografiyasi ana shunday. Bulardan tashqari, O'zbekistonning turli joylarida *qirq, yuz, ming, qo'shchi, tuyoqli, qovchin, qangli, daemon, yurchi, chimboy, mitan* kabi ko'plab urug'lar bor.

Respublikaning turli tumanlarida ko'chmanchi o'zbeklarning o'troqlikka o'tishida farq bo'lgan. Masalan, Zarafshon vodiysida bir xil urug' yoki to'p, shox nomlari bilan ataladigan mayda qishloqlar juda ko'p. Buning sababi shuki, Xiva xonligiga qarshi o'laroq, Buxoro xonligida ko'chmanchilar butun urug'i bilan emas, balki kichik-kichik bo'laklarga bo'linib o'troqlikka o'tishgan. Buxoro xonligida beklilarga nom bergan yirik shaharlar orasida urug' nomi bilan atalgan bironta ham shahar yo'q, holbuki Xiva xonligida bunday shahar uchta – Mang'it, Qipchoq, Qo'ng'iroq, V.V.Bartold bu shaharlarning paydo bo'lishiga Xiva xonligida urug'chilikning kuchli bo'lganligini sabab qilib ko'rsatadi va ular jumlasiga Nukus shahrini ham qo'shadi. Ta'kidlash joizki, etnonimlarni bilmasdan turib, O'zbekiston toponimikasi bilan shug'ullanish mumkin emas. Chunki urug', qabila nomlari ko'pincha muayyan ma'noni anglatadi. Masalan, o'zbek urug'larini bilmagan kishi O'roqli, Cho'michli, Qarg'ali, Oytamg'ali, Qaychili, Uchtamg'ali kabi etnonimlarni "-li" affiksli toponimlarga kiritishi mumkin.

*Ming, yuz* urug'lari joy nomlari tarkibida kelganda sonni bildirmaydi, albatta. Holbuki, Jizzax viloyatining Zomin tumanida o'zbek urug'larining *kuchukboy, oqtosh, yamioq, kal*, kabi kichik guruhchalari, qirg'iz urug'laridan esa *chopon* (asli – Xonkel chapani), *hirquloq, eshqora, qozoq, jinni, to'qim* kabi to'plari bo'lganligi ma'lum.

O'zbek etnonimlari to'g'risida gap borganda shuni aytish kerakki, respublika hududida tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlarning urug'-aymoqlari ham bo'lganidan o'z-o'zidan ma'lumki, ana shu xalqlarning urug'lari nomlari bilan atalgan joylar ham bor.

Etnotoponimlarni respublikaning hamma joyida mavjud desak, adashmaymiz. Bir qator toponimlar bizning o‘tmish ajdodlarimiz – turkiy qabilalar va urug‘larning hozirgi O‘zbekiston hududida qaysi o‘rinlarda yashaganliklari, qaysi hududlar bo‘ylab ko‘chib yurishganini aniq ko‘rsatib bera oladi.

O‘tgan asrning XX yillarida aholi ro‘yxati natijasida O‘zbekiston aholisining urug‘-qabilalari to‘g‘risida mukammal materiallar to‘plandi. Bu ma’lumotlar O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston aholisining etnik tarkibi haqida boy faktik material berdi. Qumqo‘rg‘on tumanidagi joy nomlari tarkibida etnonimlardan nom olgan etnotoponimlar ham salmoqli o‘rin egallaydi.

Tuman hududidagi Arg‘in, Achamayli, Qo‘ng‘irot, Jaloyir, Tortuvli, Xidirsho, Batosh, Mo‘nka, Qarg‘ali, Qorag‘ursoq, Harduri, Yuz, Baymoqli, Jaloyir, Arslonboyli, Qorabura, Bo‘ston, Kamarki, Qarsoq, To‘g‘iz kabi joy nomlari urug‘-qabila nomlari asosida paydo bo‘lgan toponimlar hisoblanadi.

Qumqo‘rg‘on tumanidagi Jaloyir, Baymoqli, Mo‘nka, Qiyg‘ochli, Ochamayli, Uyas, Mergan, Xalaki, Arslonboyli, Kamarki, Bo‘ston, Qo‘ng‘irot, Qoraqasmoq, Jaloyir, Qorag‘ursoq, Qo‘ldovli Qorabura, To‘ppora, Qarg‘ali, Kamarki, Chagoyoq kabi qishloq va ovullarning nomlari ham shu joyda o‘tmishda nomi tilga olingan qabila va urug‘lar istiqomat qilganligidan yoki hozirda yashab turganligidan dalolat beradi. Bu toponimlarning etimologiyasiga nazar tashlasak ko‘pgina ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Qumqo‘rg‘on tumani hududida ko‘plab obyektlarning nomi urug‘ va urug‘ guruhlarini asosida paydo bo‘lgan. Bu tipdagi joy nomlari shu urug‘ va urug‘ to‘dalarining yashaganligidan yoki obyektning qarashliligidan darak beradi. Ularga namuna sifatida quyidagilarni ko‘rsatamiz:

*Do‘rmontepa* – Qumqo‘rg‘on tumanidagi tepa, qo‘rg‘on. Do‘rmon – qadimgi turkiy qabila nomi. “Mo‘g‘ullarning yashirin tarixi” da yozilishicha, do‘rmon urug‘ining asoschisi Duva Soxor bo‘lib, to‘rtta o‘g‘li bo‘lgan. Ana shu to‘rt o‘g‘ildan do‘rmon (mo‘g‘ulcha durbed: dur – “to‘rt”, bed (bod, bodun) – “odam, urug‘, qabila”) urug‘i tashkil topgan. Lubsan Danzanning “Altin tobchi” asarida Duva Soxor o‘g‘illarining ismi keltiriladi. Bular: Donoy, Dokshin, Emneg

va Erkegdir. Do‘rmon – “to‘rt kishi”, “to‘rt odamning urug‘i” dir. Do‘rmonlar XIV – XVIII asrlarda O‘rta Osiyo tarixida muhim rol o‘ynagan qabila hisoblanadi. Xoja Samandar Termiziy Buxoro xonligida Muhammadbek do‘rmon, Muhammad Rahimbek do‘rmon singari beklar bo‘lganligini qayd etadi. Do‘rmonlar mashhur sarkarda Mahmudbiy otaliq qo‘shinining asosiy kuchini tashkil etgan. XVI – XVIII asrlarda Qabodiyon – do‘rmonlarning yurti bo‘lgan. N.A.Mayev: “Vaxsh qirg‘oqlari sari – qatag‘onlar va do‘rmonlarning manzillari bilan egallangan. Bu manzillar hatto alohida nomga ega ham emas. Aholi ularni umumiy nom bilan Lag‘mon deb atashadi”, – deb yozadi. O‘zbekistonda do‘rmon etnonimi bilan ataluvchi ko‘pgina joy nomlari mavjud. Do‘rmontepa – “do‘rmon urug‘iga tegishli tepa” demakdir.

*Qo‘ng‘irot* – Qumqo‘rg‘on tumanidagi qishloq nomi. Qo‘ng‘irot – etnonim. O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq xalqlari tarkibidagi qabila. Mo‘g‘ulcha xongirat. Qo‘ng‘ir so‘zining rang bildiruvchi “qo‘ng‘ir” so‘ziga aloqasi yo‘q. Qo‘ng‘ir mo‘g‘ulcha xun kerey (“qora qarg‘a”, “qarg‘a kishi”) so‘zlaridan tashkil topgan. So‘z oxiridagi -t affiksi kishilar jamligini, jamoani bildirgan:

xun+kerey+t>xunkereyt>xunkirat>qo‘ngirat>qo‘ng‘irat.

Kerey/qarg‘a – qadimgi turkiy va mo‘g‘ul xalqlarida totem, muqaddas jonzot sanalgan. Shu tariqa urug‘, qabila nomi yuzaga kelgan.

*Qoraqasmoq* – Qoraqasmoq – etnonim. Qashqa-Surxon qo‘ng‘irotlari voxtamg‘ali bo‘limidagi 16 urug‘ning biri – qrag‘asmoq – qoraqasmoq. Aholining urug‘iga nisbat etilib qishloq nom olgan.

*Qorabura* – Qumqo‘rg‘on tumanidagi qishloq nomi. Qorabura – urug‘ nomi, Surxondaryo qo‘ng‘irotlari qanjig‘ali bo‘limining urug‘i. Qadimgi turkiy tilda bug‘ra – erkak tuya. Bug‘raxon – XI asr turk hoqonlaridan biri. Bug‘ra Qarahaqan–Xoqoniya shoxlaridan birining ismi. Bug‘ra~buvra~bura – totem, muqaddas sanalgan hayvon. Totem urug‘ nomiga, urug‘ nomi esa oykonimga aylangan. Etnonimiyada qora – ulug‘, buyuk; qudratli; kuchli; katta.

*Qiyg‘ochli* – Qumqo‘rg‘onidagi qadimiy qishloq nomi. Qiyg‘ochli – urug‘ nomi. Qo‘ng‘irotlarning vaxtamg‘ali bo‘limi tarkibidagi 16 urug‘ning biri. Ba‘zi



qipchoq shevalarida qaldirg'ochning bir turi – qiyg'och. Urug' nomiga totem – sig'iniladigan parranda asos bo'lgan. Urug'iga qarab qishloq nomlangan.

*Ochamayli* – Qumqo'rg'on tumanidagi joy. Ochamayli – etnonim. Achamayli, achimayli, ochamayli shakllarida uchraydi. Samarqand viloyati, Bulung'ur, Urgut tumanlari, Toshkentning Bekobod, Bo'ka tumanlarida, Qashqadaryoning Kitob tumanida, Qoraqalpog'istonning Kegayli tumanida Achamayli qishloqlari bor. Ochamayli – qo'ng'irotlarning vaxtamg'ali bo'limining bir urug'i. Qoraqalpoqlarda ashamayli deb ataladi. S.Qoraevning izohlashicha, ho'kiz yoki qo'tosga uriladigan egar yoyinki bolalar minishi uchun mo'ljallangan egar ochamay (achamay) deyilgan. Achamayli (ochamayli) “egarli”, “tamg'asi egar shaklidagi urug'” demakdir.

*Ko'rto'g'ay* – Qumqo'rg'on tumanidagi joy, paxta maydoni. Ko'rto'g'ay – Surxon vohasidagi yashovchi qo'ng'irotlarning qanjig'ali bo'limidagi urug'. Qamish va turli butalar zich o'sgan, hayvon va odam yurish qiyin bo'lgan to'qayni ko'rto'qay deb atashadi. Shunday joylarda yashagan kishilar guruhi ko'rto'qay/ko'rto'g'ay nomini olgan. Etnonim asosida joy nomi kelib chiqqan.

*Jaloyir* – Qumqo'rg'on tumanidagi qishloq. Qadimgi Darzangi shahri yonida vujudga kelgan. Jaloyir – o'tmishda yirik turkiy tilli qabila. Rashididdinning ma'lumotiga ko'ra, jaloyirlar ko'p sonli qabila bo'lib, jat, tukaraun, kunksaut, kumsaut, uyat, nilkan, kurkin, tulangit, turi, shankut urug'lariga bo'lingan. Ayrim tarixchilar jaloyirlarni mo'g'ul qabilasi sifatida qayd etishadi. Rashididdinning yozishicha, chingiziylar davriga kelib ko'plab qabilalar o'zlarini mo'g'ul deb hisoblashgan, lekin o'tmishda ular turk bo'lib, mo'g'ul nomini pisand ham qilishmagan. Mazkur turk qabilalariga jaloyirlar, sunitlar, tatarlar, merkitlar, targutlar, oyratlar, bargutlar, korilar, tulaslar, tumatlar, bulagachinlar, keremuchinlar, urasutlar, telengutlar, kushtemilar, uryankatlar, kurkan, sakaitlar, naymanlar, keraitlar, ongutlar va boshqalar kirgan. Tashqi qiyofasi, laqabi, udumlari va o'zini tutishi ko'p jihatdan bir-biriga o'xshaganligi uchun mo'g'ullar orasida o'sgan nangyas, uyg'ur, qipchoq, turkman, qarluq, xalach, barcha asirlar va tojik xalqlari ham o'zlarini mo'g'ul deb atashgan. XIII – XIV asrlarda jaloyirlar

asosan Ohangaron vodiysi va Xo‘jandda o‘rnashib oldilar. XIV asr o‘rtalarida Xo‘jand hokimi Boyazid Jaloyir bo‘lgan. Bundan tashqari, XIII asr davomida jaloyirlarning katta guruhi Iroq va Ozarbayjonga ko‘chib o‘tib, mustaqil jaloyiriylar davlatiga asos soldilar.

Amir Temurning qaramog‘idagi qirq aymoqdan 12 tasiga tamg‘a berilgan bo‘lib, bular xos navkarlar qatoriga kiritilgan edi. Ular orasida jaloyirlar ham bo‘lgan. Amir Temurning farmoni bilan Jaloir ulusidan To‘q Temur va Sher Bahrom sakkizinchi va to‘qqizinchi amir tayinlangan. Bulardan yigirma kishi yuzboshi va o‘nboshi etib belgilangan. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida ham ular katta nufuzga ega edilar. Xususan, Buxoro xoni Abdullaxonning (1583 – 1598) Hirotga yurishi vaqtida Tanishbiy otaliq, Subxonqulixon davrida (1681 – 1702) esa Termiziy bek jaloyir ismli sarkardalar tilga olinadi. XVIII – XIX asrlarda Turkistonda yashovchi jaloyirlar o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq xalqlari tarkibiga kirdilar. O‘zbek jaloyirlari ikki asosiy guruh – qaychili va bolg‘ali urug‘lariga hamda qarg‘ali, boshqird, qorabdal, qorako‘li, qorachopon, chuvuldoq, jastaban va shu singari mayda urug‘ bo‘linmalaridan tarkib topgan. Qozoq jaloyirlari sirmonoq, oriqtinim, boychegir, qaychili, sigirchi, bolg‘ali, kuchuk, qorachopon, andas, qalpas, mirza, o‘roqli, oqbo‘yim urug‘lariga; qirg‘iz jaloyirlari esa kichik, mang‘itay, supatay urug‘laridan tashkil topgan.

*Qanjig‘ali* – Qanjig‘ali – o‘zbek urug‘laridan biri. Qo‘ng‘irotlarning besh bo‘limidan biri – qanjig‘ali, u 14 urug‘dan iborat. Xonjig‘ali deb ham ataladi. Qanjig‘ali – umumturkiy qipchoq etnonimi. Qanjig‘alilar XIII – XVII asrlarda qipchoq konfederatsiyasiga kirgan. Ular Dashti Qipchoqning sharqiy qismida (Volganing sharqida) yashagan. Qipchoq ittifoqining bo‘linib ketishidan so‘ng turli turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbeklarning turli qabilalari (yuz, xitoy, qipchoq, qo‘ng‘irot, saroy) tarkibiga qo‘shilib ketgan. Qoraqalpoqlarning o‘rta juzida qanjo‘g‘ali urug‘i qayd etilgan. Etnonimning tarkibi qan+jig‘a+li. Qan – xon; hukmdor, hokim. Jig‘a – bosh kiyim ustiga taqilib, yuksak lavozim egasi ekanligini bildiruvchi belgi; bayroq, qadimda arava, qora uy ustiga taqilgan tug‘ – lattali nishon. - li affiksi mavjudlikni bildirgan.

*Qarg'ali* – Qumqo'rg'onda yashovchi urug'. Surxondaryo qo'ng'irotlari qanjig'ali bo'limi qorag'ursoq urug'ining bir tarmog'i – qarg'a. Surxon vohasi juzlarini jilontamg'ali bo'limining qarg'a degan urug'i bor. Xorazm qo'ng'irotlari, Farg'ona vodiysidagi o'zbek urug'larida hamda G'arbiy Sibir turkiy xalqlarida qarg'a urug'i borligi aniqlangan. Rashididdin tomonidan o'g'uzlarning karkin urug'i qayd etilib, u ham “qarg'a” so'zi bilan bog'liq bo'lgan. Qarg'a aslida totem, muqaddas hisoblangan jonzod (qush). Qarg'a qadimgi turklarda chiqayotgan quyoshning timsoli bo'lgan. Quyosh esa tonggi ko'k samo bilan birga Tangrini o'zida mujassam etgan. Burgutdek qanotini yozgan qizil qarg'a tasviri qadimgi turk shahzodasi Kulteginning tojida o'rnatilgan. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, qadimgi turkiy qavm – usunlarning totemi qarg'a bo'lgan. VIII asr ikkinchi yarmiga oid tibet manbasida O'rta Osiyoda yashagan qabilalar orasida gar-rga-pur nomli qabila tilga olinadi. Bu so'z “qarg'a o'g'li” degan ma'noni bildiradi. Sosoniylar sarkardasi Bahromning laqabi Cho'bin bo'lib, u ham qarg'a degan ma'noni beradi. Sh.Kamoliddinning fikricha, Bahrom Cho'binning laqabi uning yuqorida qayd etilgan qar-rga qabilasiga mansubligidan dalolat berishi mumkin. Totem ifodalovchi so'z (qarg'a) etnonimga o'tish jarayonida -li affiksi qo'shilgan. Qishloq nomiga juzlarning urug'i nomi asos bo'lgan. Totemdan etnonim, undan oykonim vujudga kelgan. Sherobod va Jarqo'rg'onda Alaqarg'a nomli qishloqlar bor.

*Qorag'ursoq* – Qorag'ursoqshox. Qo'ng'irotlar qanjig'ali bo'limining urug'laridan biri – qorag'ursoq. Oqqursoq yoki cholqursoq ham bo'lgan. Qarsaq – mo'ynali hayvon, cho'l tulkisi. Qozoq, o'zbek tillarida tulkining bir turi, qirg'iz tilida tulki qursoq – cho'l tulkisi. O'zbek xalq dostonlarida tulki, qarsaq ovlamoq, qarsaqday qotmoq (ot haqida) birikmalari bor. Qoraqursoq – qarsaqning bir xili. Qarsaq – totem, muqaddas hayvon. Etnonimga shu asos bo'lgan.

O'zbek tilida qadimiy urug' va qabilalarning, qabila uyushmalari, tarmoqlari nomlariga nihoyatda boy bo'lib, buni o'zbek xalqi tilida saqlangan etnonimlarni to'plash va tadqiq qilish yorqin ko'rsatdi. Etnonimlar o'zbek tili leksemasining qadimiy qatlamiga mansub bo'lib, ko'pgina etnonimlarning ma'no

va etimologiyasi, nomlash davrlar o'tishi bilan, o'zgargan va unutilgan. Mana shu nuqtai nazardan etnonimlarni ikki guruhga ajratish mumkin: nomlash motivi unutilgan (noaniq) nomlar, ma'nolari etimologik tadqiqotlar orqali aniqlanishi mumkin. Masalan, totemik tasavvurlar bilan bog'liq nomlar.

Nomlash motivi va ma'nosi aniq sezilib turuvchi nomlarning ma'lum qismini nomlash motivi tamg'a va maxsus belgilar bilan, hajm, shakl tushunchalari bilan, rang-tus tushunchalari bilan, etnosning ijtimoiy-tarixiy ahvoli, sharoiti, kasb-kori, yashash joyi bilan aloqador etnonimlar tashkil qiladi.

Etnosning totemistik tasavvurlari, tamg'a va maxsus belgilar, rang-barang tushunchalari bilan aloqador bo'lgan urug' va qabila nomlari o'zbek etnonimiyasining eng ko'hna qatlami bo'lib, o'zida etnosi nomlash vazifasidan tashqari turkiy xalqlarning o'tmish ajdodlarning ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, madaniy-ma'naviy qarashlariga oid qimmatli tushuncha va tasavvurlarni mujassamlashtirgan. Mana shu ma'noda tilga olingan etnonimlar guruhi, bir tomondan, lisoniy (nominativ) qimmatga, ikkinchi tomondan, nolisoniy, ya'ni ijtimoiy-tarixiy, madaniy-etnografik qimmatga egadir.

Bizning etnonimik material yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz har qanday urug' yoki qabila nomi etnosni atash, nomlash vazifasidan tashqari rasmiy, ya'ni o'zi nomlayotgan urug' va qabilaning ramzi, ya'ni uni e'zozlovchi belgi maqomiga ham ega bo'lgan. Keyingi ma'noda etnonim o'zi nomlab kelayotgan etnosni boshqa etnik guruhlardan farqlashga, unga tegishli mol-mulkni farqlab, ajratib turuvchi asosiy belgiga (masalan, mollarga solinadigan tamg'a) aylanadi. Mana shu holat ko'pgina etnonimlarning asrlar davomida turg'un (o'zgarmas) hodisa sifatida avlodan-avlodga o'tib saqlanishiga asos bo'lgan.

## Uchinchi bob bo'yicha xulosa

1. Etonimlardan nom olgan har qanday geografik obyekt etnotoponim deyiladi. Enotoponimlarning ma'lum bir qismi oykonimlar, ular har qanday mintaqa aholisining tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti, xalqlarning qadimiy munosabati, integratsiyasi va migratsiyasini ko'rsatuvchi muhim manba hisoblanadi.
2. Odatda xalqlar, millatlar, shuningdek qabilalar, yirik urug'larning nomlari qadimiy bo'ladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq kabi millat nomlari, qo'ng'iroq, mitan, qangli, qipchoq, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug'-qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari ilmiy asosda uzil-kesil hal qilingan emas. O'zbek – “o'ziga bek”, qirg'iz – “qirq qiz”, qozoq –“qo-choq”, mitan – “mo'ytan” (serjun), qangli – “qanqli” (aravali), qorluq – “qorliq” (qorda qolgan), xalaj – “qol och” (och qolgan), qalmoq – “chetda qolgan” (islom diniga kirmay qolgan) degan ma'noni bildiradi deyish g'ayri-ilmiy, asossiz izohdir.
3. O'zbek urug'lari nomlari (etnonimlar) ning o'ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ham eng qadimiy sanaladi. Ular majusiylar davrida paydo bo'lgan. Urug'larning muqaddas hayvonlari (totem) bo'lib, kishilar o'zlarini shu hayvondan tarqalgan, deb hisoblaganlar. Masalan, *jifondi* (ilonli), *jilontamg'ali* (ilontamg'ali), *qulon*, *oqbura*, *qorabura*, (bura, buvra, bu'ra – bichilmagan erkak tuya), *qarg'a*, *shag'al* (shaqal – chiyabo'ri), *echki*, *ho'kiz* etnonimlari shular jamlasidandir.
4. Kattami-kichikmi, har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman toponimiyasidan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. O'zbekistonda etnotoponimlar juda katta o'rin tutadi. V.A.Nikonov o'zi ta'riflab bergan *nisbiy negativlik* qonuniga amal qilib, *etnotoponimlar* biron millat yoki xalq yaxlit yashaydigan hududning biron qismida emas, balki bu hududning chekka qismida, ya'ni ikki xalq aralash yashaydigan chegaradosh zonadagina bo'ladi deb yozadi.

5. O'zbek etnonimlari to'g'risida gap borganda shuni aytish kerakki, respublika hududida tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlarning urug'-aymoqlari ham bo'lganidan o'z-o'zidan ma'lumki, ana shu xalqlarning urug'lari nomlari bilan atalgan joylar ham bor.

## Xulosa

1. Har bir etnonimning o'z ma'nosi bor. Ba'zi etnonimlar juda qadimiy nomlar bo'lganidan ma'nosini tushunish qiyin. Etnonimlar tarix taqozosi bilan vujudga kelgan bo'lib, ma'lumot tashishga xizmat qiladi, shu sababli etnonimlarni o'rganish juda muhim ilmiy ahamiyatga ega.
2. Qo'ng'irotlar tarixi haqida ma'lumot beruvchi muhim tarixiy manbalardan biri XIV asrda yashagan mashhur sharq tarixchisi Rashididdin Fazlulloh Qazviniy (Hamadoniy)ning "*Jome' at-tavorix*" asaridir. Taniqli o'zbek olimi X.Doniyorovning ta'kidlashicha, Rashididdinning ushbu asari shu vaqtgacha g'arb va sharq olimlari tomonidan mo'g'ullar deb atab kelinayotgan o'zbek (turkiy) qabila va urug'larining aslida kim ekanligini aniqlash uchun bevosita kalit bo'lib xizmat qiladi.
3. Etnonimlashuv – so'zning etnonimga aylanishi. Etnonimika esa tilshunoslikning urug', qabila, xalqlarning nomlarini o'rganuvchi bo'limi. Bu bo'lim o'z ichida ikkiga bo'linadi: Umumiy etnonimika va xususiy etnonimika. Umumiy etnonimika fanning dunyoda mavjud va yo'qolib ketgan xalq, qabila, urug', ellatlarning nomlarini ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etish yo'lidan boradigan bir sohasi.
4. Etnonimlar orfografiyasi masalasi hususida gap ketganda jihatni jiddiy tahrir qilish kerak nazarimizda. Masalan: uyg'ur, o'zbek, qozoq, tatar shaklida emas, balki Uyg'ur, O'zbek, Qozoq, Tatar shaklida yozish ularning onomastik tizimdagi mavqeini ko'rsatib ham turadi.
5. Etnonimlarga xos muhim xususiyatlardan biri ularning boshqa tip atoqli otlarni hosil qilishda negizlik rolini o'ynashidir. Masalan, o'zbek tilidagi anchaghina toponim va antroponimlar etnonimlarga nisbat berish orqali hosil qilingan. Bunday nomlar nomshunoslikda etnonimlar va etnoantroponimlar deb yuritiladi. Etnonimlarning ushbu xususiyati ham bu tip nomlarning turdosh so'zlarga yaqin turishidan darak beradi.
6. O'zbek tilidagi etnonimlarning lisoniy tuzilishini kuzatish ularni Grammatik shakliga ko'ra ikki guruhga bo'linishi ko'rsatdi: soda etnonimlar, qo'shma

etnonimlar va ajralmas tuzilmalar. Aralash tuzilmalar ham sodda va qo'sham etnonimlarning qo'shilmasidan iborat bo'ladi. Masalan: qo'shtamg'ali kabi nomlarda ikki soddalikning (qo'sh va tamg'a) va -li qo'shmasining ishtiroki mavjud bo'lib, etnonim shu holatida qo'shma emas, soddalik (yasama) etnonim deb tushuniladi.

7. Etnonimlarning yuzaga kelishida yangi nomlar hosil qilish asosiy o'rin tutgan. Etnonimlar asosan uch usulda hosil qilingan: 1) lug'aviy-ma'naviy konversiya usuli; 2) morfologik yoki qo'shimchalar qo'shish usuli; 3) sintaktik usul.
8. Etnonimlarning yasalishi tildagi boshqa tur so'zlardan ancha farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, yasalish asosi vayasovchi qo'shimchalar orasida chekchegaraning yo'qolib ketganidako'zga tashlanadi.
9. Etnonimning tarkibidagi yasovchi qo'shimchalarning aksariyat qismiumturkiy yasovchi qo'shimchalardir. Shuning uchun etnonimlarning yasalishini faqat o'zbek tili bazasida emas, turkiy tillar yasalish tizimi bazasida ko'rib chiqishni, taqqoslashni taqozo qiladi.
10. Etnonimlardan nom olgan har qanday geografik obyekt etnotoponim deyiladi. Etnotoponimlarning ma'lum bir qismi oykonimlar, ular har qanday mintaqa aholisining tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti, xalqlarning qadimiy munosabati, integratsiyasi va migratsiyasini ko'rsatuvchi muhim manba hisoblanadi.
11. Odatda xalqlar, millatlar, shuningdek qabilalar, yirik urug'larning nomlari qadimiy bo'ladi. Masalan, o'zbek, qirg'iz, qozoq kabi millat nomlari, qo'ng'irot, mitan, qangli, qipchoq, uyshun, qorluq, xalaj kabi urug'-qabila nomlari haqida bir qancha fikrlar bildirilgan, lekin bu etnonimlarning etimologiyalari ilmiy asosda uzil-kesil hal qilingan emas. O'zbek – "o'ziga bek", qirg'iz – "qirq qiz", qozoq – "qo-choq", mitan – "mo'ytan" (serjun), qangli – "qanqli" (aravali), qorluq – "qorliq" (qorda qolgan), xalaj – "qol och" (och qolgan), qalmoq – "chetda qolgan" (islom diniga kirmay qolgan) degan ma'noni bildiradi deyish g'ayri-ilmiy, asossiz izohdir.



12. O'zbek urug'lari nomlari (etnonimlar) ning o'ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar ham eng qadimiy sanaladi. Ular majusiylar davrida paydo bo'lgan. Urug'larning muqaddas hayvonlari (totem) bo'lib, kishilar o'zlarini shu hayvondan tarqalgan, deb hisoblaganlar. Masalan, *jifondi* (ilonli), *jilontamg'ali* (ilontamg'ali), *qulon*, *oqbura*, *qorabura*, (bura, buvra, bu'ra – bichilmagan erkak tuya), *qarg'a*, *shag'al* (shaqal – chiyabo'ri), *echki*, *ho'kiz* etnonimlari shular jamlasidandir.
13. Kattami-kichikmi, har bir tuman joy nomlarining boshqa tuman toponimiyasidan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. O'zbekistonda etnotoponimlar juda katta o'rin tutadi. V.A.Nikonov o'zi ta'riflab bergan *nisbiy negativlik* qonuniga amal qilib, *etnotoponimlar* biron millat yoki xalq yaxlit yashaydigan hududlling biron qismida emas, balki bu hududning chekka qismida, ya'ni ikki xalq aralash yashaydigan chegaradosh zonadagina bo'ladi deb yozadi.
14. O'zbek etnonimlari to'g'risida gap borganda shuni aytish kerakki, respublika hududida tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlarning urug'-aymoqlari ham bo'lganidan o'z-o'zidan ma'lumki, ana shu xalqlarning urug'lari nomlari bilan atalgan joylar ham bor.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori // “Ma’rifat” gazetasi. – T.,2019 yil 5 oktabr. – №77.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. 2022 yil, 10 fevral. <http://uza.uz/posts/345758>

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.

### II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

#### 1) Milliy nashrlar

1. Abdurahmonov D., Bektemirov H. O‘zbek xalq dostonlari onomastikasi. O‘zbek xalq ijodi. – T.: Fan, 1968. – B.110-111.

2. Amir Temur Ko‘ragon. Temur qissasi (“Qissai Temuriy”, “Temur esdaliklari”, “Malfuzoti Temuriy”). Nashrga tayyorlovchilar: H.Bobobekov, A.Qurbonbekov, H.Boboyev, Z.Bobokalonov – T: Fan, 2004. – 271 b.

3. Andaniyazova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. – T.: Turon zamin ziyo, 2016. – 208 b.

4. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – T., 2007. – 340 b.

5. Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya. – T.: Fan, 1968. – B. 191.

6. Begaliyev N. O‘zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand, 2004. – 92 b.

7. Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – T.: Fan, 1998. – 261 b.
8. Begmatov E.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – T.: Fan, 1965. – B.17.
9. Do‘simov Z., Tillayeva M. Toponimika asoslari. – T., 2002.
10. Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastikasi masalalari. Ma’ruza matnlari. – Samarqand, 2012. – B.7.
11. Qorayev S. O‘zbekiston viloyatlari toponimlari. – T.: O‘zbekiston, 2005. – B.210.
12. Qorayev S. Etnonimika. – T.: O‘zbekiston, 1979. – 24 b.
13. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. Uch tomlik. III tomlik, 3-tom. – T.: Fan, 1963. – B.240.
14. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – T., 2017. – 128 b.
15. Marqayev K. O‘zbek etnonimlari. – Qarshi: Intellekt, 2021. – B.35-36.
16. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B. 9.
17. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – T., 2009. – 430 b.
18. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. – T.: Fan, 1989. – B. 36-37.
19. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. – T., 2009. – B. 30
20. O‘zbek tili leksikologiyasi. – T., 1981. – B.112-114.
21. Uluqov N. O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. – T.: Fan, 2008. – B. 115.
22. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – T.: Fan, 1965. – B. 53-

## **2) Xorijiy nashrlar**

1. Атаниёзов С. Туркмен адам атларының дүшүндиришли созлүги. – Ашгабат: Туркменистан, 1992. – 265 б.
2. Баскаков Н.А. Русские фамилии тюркского происхождения. Восточнославянская ономастика. – М.: Наука, 1972. – С.176-249.
3. Бондалетов В.Д. Русская ономастика. – М.: Просвещение, 1983. – С.163-164.

4. Гафуров А. Имя и история. – М.: Наука, 1987. – С. 10-12.
5. Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 213.
6. Дианова Е. В. Историческая антропонимика. Учебное пособие. Ч.1. Историческая антропонимика XI-XVII веков. – Петрозаводск: Изд. Петрозаводск, 2019. – 167 с.

#### **IV. Lug'atlar**

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. Uchinchi tom. – T.: Fan, 1984. – B.269-270.
2. Alisher Navoiy. Qomusiy lug'at. Mas'ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. Birinchi jild. – T.: Sharq, 2016. – 535 b.
3. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006. – 104 b.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B. 136.
5. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1988. – 288 b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1–5-jildlar. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1-jild, 2006, – 680 b.; 2-jild, 2006, – 672 b.; 3-jild, 2007, – 688 b.; 4-jild, 2008, – 606 b. 5-jild, 2008. – 592 b.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomli. – Moskva, 1981. 1-2 t.
8. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi // [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. Q harfi. – B.465-466.
9. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi // [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. S harfi. – B. 96-97.
10. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi // [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. T harfi. – B.310-311.
11. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi // [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. H harfi. – B.177.

12. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 8-jild. – T., 2004. – B. 292-293.

## **VI. Dissertatsiya va avtoreferatlar**

1. Andaniyozova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – T., 2016.

2. Avlaqulov Y. O‘zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi. Filol.fan.nomzodi. diss.avtoref. – T., 2012. – 22 b.

3. Begmatov E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 1965. – B.108.

4. Husanov N. XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. diss. – T., 2000. – 231 b.

5. Mo‘minova N. Temuriylar davri antroponimiyasining leksik-semantik xususiyatlari: Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. – Qarshi, 2021. – 145 b.

6. Nuriddinova R. O‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili: Filol.fan.nomz.diss.avtoref. – T., 2005. – 20 b.

7. Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoref. – Samarqand, 2018.

8. Rahimov S. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fan. nom.. diss. avtoref. – T., 1998. – 25 b.

9. Rajabov O‘.X. Toponimik indikatorlarning funksional-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. dis. avtoref. – T., 2009.

10. Xudoyberganov R. O‘zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi: Filol. fanlari nomz. diss. – T., 2008. – 146 b.

11. Xudoyberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Filol. fan. dokt..diss. avtoref. – T., 2015.

12. Yo‘ldoshev B. Erkin Samandarning onomastik birliklarni qo‘llash mahorati (“Quyun izlari yohud Ogahiy” tarixiy romani asosida). Monografiya, –T.: Muharrir. 2015. – B.77.

13. Yuldashev D. Tarixiy antroponimlarning antropotsentrik tadqiqi: Filol. fanlari d-ri. diss. avto-ref. – T., 2021. – 76 b.

14. Аметзянова Л.М. Антропонимы в художественных текстах Д.Хармса: структурно-семантический аспект: Автореф дисс. канд. филол. наук. – Казань, 2009. – 20 с.

15. Анисимова В.В. Развитие русской антропонимики в современном русском языке (на примере личных имен): Автореф дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2004. – 22 с.

16. Атаниязов С. Топонимика Юго-восточного Туркменистана: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ашхабад, 1966.

17. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка : Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1965.

18. Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области. Автореф. дис...канд. филол. наук. – Т., 1968. – 24 с.

## **VII. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalar-dagi maqolalar**

1. Abduazizov A. Amir Temur va Temuriylar saltanatining xorijiy mamlakatlarda o‘rganilishi // Ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2001. – B. 51-54.

2. “Burchmulla”, “Mullabuloq”, “Qoryog‘di” va “Baytqo‘rg‘on” toponimlarining etimologik asoslari” // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2005, 1-son. – B. 46-50;

3. Abdullayev S. Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari // Respublika 7-ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – T., 2015.– B. 20-22.

4. Avliyoqulov Y. Teonimiya tushunchasi va teonimlar haqida // O‘zbek tilshunosligi XXI asrda (ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Qarshi, 2008. – B. 15-16.

5. Begmatov E., Avloqulov Y. Onomastik ko‘lam tushunchasi // O‘zbek tili va adabiyoti. 2007. № 3. – B.20.

6. Begmatov E., Husanov N., Yoqubov Sh., Boqiyev B. O‘zbek tarixiy nomshunosligining dolzarb muammolari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1991, 1992, 5-6-sonlar. – B. 21-27.

7. Bo‘riyev O. Amir Temur tarixini o‘rganishda yozma manbalarning roli // Amir Temur saboqlari: Amir Temur va uning markazlashgan davlat tuzish yo‘lidagi buyuk xizmatlari / Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T., 2001. – B. 41- 42.

8. Bo‘riyev O. Sohibqiron Amir Temur davrida etnolingvistika // O‘zbek adabiyotshunosligida tahlil va talqin muammolari: Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari // – Qarshi, 2016. – B.107-108.

9. Bo‘riyev O., Karomatov H. Nizomiddin Shomiy va uning “Zafarnoma” asari // Muloqot. – 1993. № 3. – B. 3-5.

10. Choriyev B., Eshimov F. G‘afur G‘ulomning toponimlardan foydalanish mahorati // Onomastika Uzbekistana. 1989. – B.95-96.

11. Dadaboyev H. “Zafarnoma” tarjimasi leksikasi xususida // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – T., 2008. - № 2. – B. 12-15.

12. Do‘simov Z. Toponimik indikatorlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1972. № 5. – B. 71-74.

13. Do‘simov Z. Toponimlar tasnifi masalasiga doir// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1978. №1. – B.19-20.

14. Jabborov X. Tarag‘ay toponimi // Til va adabiyot ta’limi, 2019, 9-son. – B.28.

15. Jabborov X. Tarag‘aymi, Turag‘ay? // Muloqot. 2022, 1- son, – B.115-117.

16. Maxammadiyeva S. Barlos urug‘i etnogenezining manbalarda yoritilishi. Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixida tutgan o‘rni: Talabalar ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Toshkent, 2011. – B. 57-60.

17. Mirzayev I. Onomastika tadqiqiga doir ayrim mulohazalar// Onomastika. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand, 2013. – B.7.
18. Muhammadjonov A. Sohibqiron va Zulqarnayn atamaları haqida// O‘zbek tili va adabiyoti, 2005, 3-son. – B.34.
19. Nafasov T. Buyuk Sohibqironning ismi haqida // Amir Temur va Temuriylarning jahon madaniyatida tutgan o‘rni mavzusidagi mintaqaviy ilmiynazariy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2006. – B.282.
20. Naimov S. Toponimik aniqlagichlar haqida// O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1983. № 4. – B. 63-64.
21. O‘rinboyev A. Shomiy “Zafarnoma”sining yozilishi haqida. Sharqshunoslik: ilmiy to‘plam. – T, 1996. № 7. – B. 9-10.
22. Qilichev E. Ayniy asarlaridagi antroponimlarning stilistik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti.1975. – 4-son. – B.21.
23. Qo‘ng‘irov R., Mo‘minova M. Собственные имена в языке художественной литературы // Ономастика Узбекистана. – Ташкент, 1989. – С.124-125.
24. Rajabov O‘. Ayrim toponimik indikatorlar. O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2006. №1. – B.81-82.
25. Shodmonova N. “Temur tuzuklari”da nomlar va atamalar. – O‘zbek tili va adabiyoti. – T, 2011. № 5. – B.85-87.
26. Solijonov Y., Mo‘minov S. Badiiy asar qahramonlari ismlarining muhim vazifasi // O‘zbek tili adabiyoti.1984. 2-son. – B.44-49.
29. Toshkent darvozalari nomlari xususida // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. 2-son, – B. 29-34.
30. Yusupova D.Y. Abdurazzoq Samarqandiy, Nizomiddin Shomiy, Mu‘iniddin Natanziy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Fasih Havofiy, Xondamir, Bobur // O‘rta asrlar sharqining mashhur olim va mutafakkirlari. – T., 2014. – B. 86, 92-104.